

Alisher Navoiy nomidagi SamDU Tarix fakulteti

“Tarixshunoslik va manbashunoslik” kafedrası bitiruvchisi

Yuldashev Eldorning

“Isxoqxon Ibrat hayoti va faoliyati tarixshunosligi” mavzusidagi

malakaviy bitiruv ishi

Rahbar. Dos. D.N. Rajabova

MUNDARIJA:

Kirish.	4-5
I. BOB. Isxoqxon Ibrat va uning xayoti va ma’rifatparvarlik faoliyati tarixshunosligi.	
I.1. Isxoqxon Ibrat-Namangan jadidchilik namoyondasi.	6-15
I.2. Ibratning ilmiy faoliyatida publitsistikaning o‘rni.	16-38
II. BOB. Isoqxon Ibratning asarlari-Turkiston tarixini o‘rganishda muhim manba	
II.1 Isxoqxon Ibratning “Tarix-i Farg‘ona” asari va undagi voqealar bayoni.	39-50
II.2 Turkiston vaqtli matbuotida Ibratning ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy qarashlarini aks ettirilishi.	51-61
Xulosa.	62-63
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	64-66

KIRISH.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu – tabiiy hol. Odamzod borki, avlod – ajdodi kimligini, nasl –nasabini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi. SHuning uchun ham «Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim»¹.

Isxoqxon Ibrat shoir va olim, noshir va pedagog, din arbobi va islohotchi sifatida umrini Vatan va millat manfaatiga qaratdi. SHu bois uning boy merosi nafaqat mamlakatimizda, hatto yaqin va uzoq xorijda ham keng o'rganilmoqda.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi sifatida tariximizning ajralmas qismi bo'lgan xonliklar davri, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va jadidchilik harakatining namoyondalari bo'yicha hozirgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarda bildirilgan ilmiy-nazariy mulohazalar, tarixiy faktlarni o'rganish va umumlashtirish asosida Isxoqxon Ibratning hayoti va ijodi shuningdek, yaratgan asarlarini tarixiy manba sifatidagi talqini xususidagi nazariy ma'lumotlarni jamlash hamda ularni tarixiy jarayonlar bilan solishtirib o'rganish belgilandi.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagilar bo'yicha tahlil qilish vazifasi belgilandi:

- Ibratning hayot va ijod yo'lini haqqoniy tarix tamoyillari asosida yaratilgan asar va manbalar orqali tadqiq etish;
- mavjud manbalarda aks ettirilgan ijtimoy va siyosiy hayotdagi o'zgarishlarga nisbatan Isxoqxon Ibrat ijodidagi o'zgarishlarni tarixiyligi xususida mulohaza bildirish;
- «Tarix-i Farg'ona» asarining eng muhim belgilari, tushunchalari va ularning ilmiy talqini, maqomiga doir nazariy ma'lumotlarni jamlash va tahlil qilish;

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамирмиз// асарлар, 7-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999. 132-154 б.

Tadqiqodning obekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishning asosiy materiali sifatida XVIII-XX asr o'lkamizda ro'y bergan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni aks ettirgan Ibratning ijodida o'z aksini topgan tarixiy va nazariy ma'lumotlar tashkil qiladi. SHuningdek, tadqiqot jarayonida jadidchilik va vatanparvarlik g'oyasi amaliy asos sifatida foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ishda janrlar xususida mavjud manbalarda bildirilgan fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda, ularning mazkur tizimda tutgan o'rni, ahamiyati bilan bog'liq masalalar haqida mulohazalar yuritildi. Mavzuni o'rganish va yoritish jarayonida to'plangan ushbu nazariy va amaliy qiymatga ega bo'lgan dalillardan manbashunoslik O'zbekiston tarixi, o'zbek adabiyoti tarixi kabi nazariy fanlarni chuqur o'zlashtirishda, shuningdek, jadidchilik harakatining asoslarini belgilashda muhim qiymatga ega bo'lishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, besh bo'lim, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami bet.

I. BOB. Isxoqxon Ibrat va uning xayoti va ma'rifatparvarlik faoliyati tarixshunosligi.

I.1. Isoqxon Ibrat-Namangan jadidchilik namoyondasi.

Isxoqxon to'ra milliy uyg'onish davrining faol ijodkorlaridan biri, serqirra iste'dod sohibi. Ibratning zamondoshi, shoir va maorifchi Ibroxim Davron u kishi haqida shunday yozadi: «Isxoqxon to'ra ulumi diniya va faniya va adabiyada ustoz komillig'i bilan butun Farg'ona va digar jihat Osiyoyi Vustoda inkor o'lunmas darajada bir mavqei mumtozi tutmushdur. Isxoqxon to'ra ulumi diniyada mudarrisdur, fununi dunyaviyda, biloshubha, arxitektor, texnik va mexanik, fiziqiya ilminda tilifonist, tilig'rofist va yana ximik desak yana ozdur, chunki bu ilmlarni ul kishim yaxshi bilur. Isxoqxon to'ra olim va fozil bir zoti oliy bo'lib, bu turfa fazoili insoniyaga molik... Ba'zi ixtiroti ham bordur».²

Isxoqxon Ibratning hayot yo'lini yoritishda uning «Lug'ati sittati alsina», «Jome' ul-xutut», «Tarixi Farg'ona», «Mezon uz-zamon», «San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy» kabi ilmiy, pedagogik hamda badiiy asarlaridagi ma'lumotlar, Ibratni yaqindan bilgan zamondoshlarining xotiralari va o'sha davr vaqtlari matbuotida e'lon qilingan Isxoqxon Ibrat haqidagi maqolalar muhim o'rin tutadi.

Isxoqxon Ibrat 1862 yili Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ildi. Uning ota-onalari Junaydullaxo'ja va Huribibi davrining o'qimishli kishilaridan bo'lganlar. Isxoqxon dastlab hijo usuliga asoslangan qishloq maktabida o'qidi, ammo onasining qo'lida savod chiqardi. Bu haqda o'zi shunday yozadi: «Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida 5 yilda 3 adad muallimda o'qub, oxiri savodim chiqmay, keyin qizlar maktabida, o'z uyimizda validai marhumamdan o'qub savod chiqardim. Ikki sana qiblagohimdan husnixat mashq etdim»³.

Huribibi maktabdor bo'lib, o'z maktabida faqat quruq yodlash bilangina cheklanmay, qizlarga yozishni, husnixatni ham o'rgatar edi. O'zi ancha savodxon bo'lib, husnixatdan xabardor edi. SHuning uchun ham Isxoqxon onasini ko'p

² 1908 й-«Туркистон вилоятининг газети»да (56-сонда)

³ Ибрat. Сиддикий-Ажизий, Сўфизода. Танлаган асарлар.-Т.: Маънавият.-1999. 36-37 бет

o‘rinlarda ustozi sifatida hurmat bilan tilga oladi. Adabiyot va san‘atga zo‘r muhabbat qo‘ygan Isxoqxonni o‘qishni davom ettirish uchun Qo‘qonga yubordilar. U XIX asr boshlarida barpo etilgan Muhammad Siddiq Tunqator madrasasiga 1878-yili o‘qishga kiradi. Isxoqxon Ibratning Qo‘qon madrasasida tahsil ko‘rgan yillari (1878—1886) o‘zbek adabiyotida, madaniy hayotida, maorifida tub sifat o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan davrga to‘g‘ri keladi. Uning bu adabiy-madaniy hayotdan bahramand bo‘lganligi shubhasiz. U Qo‘qon adabiy muhitining yirik namoyandalari Muqimiy, Furqat, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Haziniylar bilan yaqin aloqada bo‘lgan, adabiy mushoiralarda ishtirok etgan. Isxoqxon Ibrat madrasa beradigan ilmlar bilangina cheklanib qolmadi. U o‘qish davomida buyuk SHarq olimlari asarlarini mustaqil tarzda qunt bilan mutolaa qidsi, arab, fors va rus tillarini chuqur o‘rgandi. U rus va o‘zbek tillarida chiqadigan Turkistonning ilk gazetalari «Turkiston viloyatining gazetii», «Turkestanskii vedomosti» hamda Turkiston o‘lkasida yangi tarqala boshlagan Ismoilbek Gaspralining «Tarjimon» gazetasi bilan birinchi marta Qo‘qon madrasasida o‘qib yurgan kezlari tanishdi. Manbalardagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Isxoqxon tomonidan tashkil qilingan «Ishoqiya» kutubxonasida «Tarjimon» gazetasining hatto 1884 yilgi boylamlari ham bo‘lgan.

Isxoqxon to‘ra Ibrat 1886 yili Qo‘qon madrasasini tugatib, o‘z qishlog‘i To‘raqo‘rg‘onga qaytib keladi. O‘z faoliyatini ilg‘or maorifchi sifatida ma‘rifat tarqatish bilan boshlaydi: o‘sha yili o‘z qishlog‘ida maktab ochadi. Uning maktabi «usuli qadim» («usuli tahajji»), ya‘ni hijo metodiga asoslangan maktablardan birmuncha farq qilar edi. Ibrat Qo‘qonda o‘qib yurgan vaqtlaridayoq o‘lkada ochilayotgan rus maktablaridagi o‘quv usullarining mahalliy maktablarda hukm surayotgan hijo hamda quruq yodlash usulidan ustunligini sezgan edi. Isxoqxon o‘z maktabiga nisbatan ilg‘or bo‘lgan tovush (savtiya) usulini tatbiq qildi va «usuli savtiya»ni eski usul tarafdorlaridan himoya qildi. Biroq bu maktabida uzoq vaqt ishlay olmadi. Ayrim johil mutaassiblar uning maktabini «kofirlar maktabi» deb e‘lon qilib, xalq bolalarini bu maktabdan qaytarishga harakat qildilar. Hatto general-gubernatorlik amaldorlari yordamida yoptirishga muvaffaq bo‘ldilar.

Ibrat o‘zining «Lug‘ati sittati alsina», «Jome’ ul-xutut» va «Tarixi Farg‘ona» asarlarida yozishicha, 1887 yili, ya’ni 25 yoshida onasini Makkaga, haj ziyoratiga olib boradi. Biroq onaizoriga o‘z vataniga yana qaytib kelish nasib etmadi. Onasi Huribibi Jidda shahrida o‘pka shamollash kasali bilan vafot etdi. Ishokxonning SHarq mamlakatlariga safarga chiqishdan asosiy maqsadi, birinchidan, onasining hajga olib borish haqidagi iltimosini qondirish bo‘lsa, ikkinchidan, chet el xalqdari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishish, bu mamlakatlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish istagi edi: «...Umrum naqdini havas bozorida kechirmak taqozosi-la o‘lub, sinnim yigirma besh kechmish ekan, havoii taqozoi muhtarama dushub sayohat etdum...»deb yozadi⁴.

Isxoqxon Ibrat onasini Jidda shahrida dafn etib, SHarq mamlakatlari bo‘ylab sayohatini davom ettirdi. SHu bilan birga, u Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida bo‘ldi. Ancha vaqt Afg‘onistonning Kobul, Arabistonning Jidda kabi kata shaharlarida istiqomat qildi. Makka shahridan Qizil dengiz va Hind okeani orqali Hindistonga keldi. 1892— 1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombey va Kalkuttada yashadi. Bu erda ko‘p ishlatiladigan arba’ lisonni, ya’ni to‘rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi. CHet ellarda u SHarq va G‘arb xalqlari hayoti, madaniyati va san‘atini muqoyasa etish imkoniga ega bo‘ldi. Yevropaning ilg‘or ilm-fanini yaqindan o‘rgandi, ilmiy asarlari uchun qimmatli materiallar to‘pladi. U SHarq xalqlari tillari bilan bir qatorda G‘arb xalqlari tillarini ham bilish zarur deb hisobladi va Arabistonda fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan birga, eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o‘rgandi. Bu haqda zamondoshi Ibrohim Davron shunday yozadi: «...Fazoili insoniyadin maoda qozi to‘ra Isxoqxon janoblari turkcha, forsha, hindicha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha, armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa mohirdurlar»⁵.

Ibrat – iste’dodli shoir. U-o‘zbek, arab va fors tillarida erkin ijod qilgan. She’rlarini to‘plab devon tuzgan. Ammo mazkur devon topilani yo‘q. «Ilmi Ibrat»

⁴ Ибрат. Сиддикий-Ажизий, Сўфизода. Танлаган асарлар.-Т.: Маънавият.-1999. 2-бет.

⁵ «Туркистон вилоятининг газети», 1908, 56-сон.

she'riy to'plami 1909 yili o'z matbaasida nashr etilgan. Ibrat nihoyatda ihcham, baytlari bir-biriga juda mutanosib, o'ziga xos kompozitsiyaga ega g'azallar yarata olgan. g'azallardagi nafis tashbiq sifatlashlar mazmun teranligiga xizmat qilgan. U sho'rolar davrida ham hajviy asarlar yaratishda davom etgan.

Isxoqxon Ibrat bu mamlakatlarda Yevropa usulidagi shaharlar, ulardagi madaniy hayot vatexnika yangiliklari bilan tanishdi, zamonaviy fan yutuqlarini egallash uchun G'arb tillarini bilish zarur ekanligini yaxshi angladi. Lekin bu madaniy hayotdan bahramand bo'la olmayotgan, mustamlaka zulmi ostida azob chekayotgan arab, hind va boshqa SHarq xalqlari hayoti uni iztirobga soldi. Isxoqxon o'z Vatanida ko'rgan mustamlaka zulmining og'ir dahshatlarini chet mamlakatlarda ham ko'rdi, hamma mustamlaka mamlakatlarda xalq hayoti bir xilda og'ir ekanligini tushundi. Mustabidlarga nafrat bilan qaradi. Ibrat bu mamlakatlarda naqqoshlik, kishilarga muhr o'yib berish, masjid-madrasalar peshtoqlariga, qabr toshlariga naqsh solib berish, ba'zi kitoblardan namunalar ko'chirib berish yo'li bilan tirikchilik o'tkazdi.

Isxoqxon Ibrat chet ellarda olim va fozil kishilar bilan, ular qaysi dinga yoki millatga mansub bo'lishidan qat'i nazar, yaqin aloqada bo'ldi. «Har bir lison safar axlina yuz oltun barobarinda» ishlatilganligini tushungan ma'rifatparvar chet tillarni o'rganishga kata e'tibor berdi: «Har bir zavvor va axli fazl kishini ko'rsam, kayfiyat va ta'limot maollarini andin so'radim»⁶.

Uning «Lug'ati sittati alsina» va boshqa asarlari mazkur safarlari davomida yig'ilgan boy material asosida katta ehtiyoj samarasi o'laroq yaratildi. Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyondalari Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Haziniylar bilan yaqin aloqada bo'lgan adabiy mushoiralarda ishtirok etgan, arab, fors va rus tillarini mukammal bilgan, jadid maktabini ochib o'qituvchilik qilgan o'z mablag'iga xalq halq uchun hamom, choyxona quragan, «Matbaai Ishoqiya», «Kutubxonai Ishoqiya», «Fotografiya Ishoqiya» va «Ishoqiya bog'i» ochib ommani ma'rifiy madaniy taraqqiyotiga xizmat qilgan yurt farzandini ommaviy qatag'on chetlab o'tmadi. 1937 yilning bahorida Ibratni ham qamoqqa olishdi. 75

⁶ Ибрат. Сиддикий-Ажизий, Сўфизода. Танлаган асарлар.-Т.: Маънавият.-1999. 5-бет.

yoshni qoralagan shoir-ma'rifatparvar sho'rolar hibsxonasida ikki oy ichida, sudi bo'lmay qazo qiladi.

Isxoqxon Ibrat o'zining ma'rifatparvarlik faoliyatida ham, ijodida ham qishloq va shahar munosabatlariga alohida e'tibor berdi. U shunday xulosaga keldiki, qishloq bilan shaharni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, ularni o'zaro bog'liq holda rivojlantirish kerak. SHuning uchun ham u shaharlar bilan bir qatorda qishloqlarda ham ilm-ma'rifat, madaniyat o'choqlarini vujudga keltirish, erlar va ayollar, o'g'il va qiz bolalar maktablari ochish masalasiga kata ahamiyat berdi. Isxoqxon qishloq ishlari tugagach, gapma-gap yuruvchi dehqon yigitlarini kechki maktablarga tortish, ota-onalar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish, ta'lim-tarbiyaga oid darsliklar, risolalar, gazeta va jurnallar chiqarib turish kabi dolzarb masalalarni ko'tarib chiqdi: «Qishloqning ishlari shaharga, shaharning ishlari qishloqqa, bir-biridan ajratib bo'lmaydur. Bir tan bo'lsa, anda jasad sihat bo'lur. SHaharning ehtiyojini qishloq ado qilur, qishloqning ehtiyojini

shahar bitirur... Bizning Farg'onadagi xurofotlarning ko'bligiga qaraganda har yili uch-to'rt adad fanga oid kitob bostirib tarqatish lozim. Vaholanki, bir dona ham yo'q. Loaqal biror dona jurnal, risolacha, gazet haftalik maktab uchun darkor edi».

Isxoqxon Ibrat o'z xalqining porloq kelajagiga, ozod hayotiga zo'r umid va ishonch bilan qaradi. Bu orzularini romantik bo'yoqlarda tasvirladi: «Madaniy shaharlar shunday bo'lurki, anda dorulmuallimin madrasalar va anvoyi funun maktablar (oliy o'quv yurtlari), har xil ilmu hunarlar, katta do'xtirlar, tabiblar va mazlumni zolimdan himoya qiladurgan hokimlar o'z shaharlarida bo'lur. Qo'l hunarlaridan har xil va hamma xillari, to'qiladurgan nimarsalar, anvoyi asbob o'z shaharlarida bo'lub, bo'lak kishilarga ehtiyoj bo'lmasa hamda ul shaharda zavodlar, otash kemalar va foyizlar va ko'nkalar elektr ilan barpo bo'lsa. Ham ul shaharda har kuni yurub turadigan foyizlar, chirog', shamol sandal (ventilyator yoki xolodilnik) bo'lsa, katta maktablar bo'lsa, zavodlar ovozi har kuni necha martadan eshitulub tursa, bir nimarsaga ehtiyojmand bo'lub chiqsa kishi darhol topilsa, tilfonogramlar bo'lsa, shaharlar ozoda, changdan, bo'yi baddan toza bo'lsa,

qaysi ilmni xohlasa, ani ta'lim beradurgan muallimlar bo'lsa, arz qilganda, arzi holni bilib javobini qaytarsa, yaramas odamlar uchun jazoxonalar, omonat qo'ymoq uchun xiyonat qilmaydurgan omonatxonalar bo'lsa, ahli ilmlarning qadri yaxshi bo'lsa, nodonlarni o'z holiga qo'ymasa, fikr va ilmu hunar o'rgatsa... Har kishi o'z ishiga mashg'ul bo'lub, bekor ko'chalarda va samovarlarda o'lturmasa, kasallar oh-zor qilmay va yotmay iloj qiladurgan hakimlar tayyor bo'lsa, yo'qotgan narsalarni omonatxonaga ahli bexilof topshirsa, kechalar ham kunduz kunidek savdo-sotikdar bo'lsa...»⁷.

Isxoqxon Ibratning ilmiy-tarixiy asarlari Vatanimiz tarixini o'rganishda, shubhasiz, zarur, birinchi, mo'ʻtabar manba hisoblanadi.

XX asr boshlarida CHor hukumati mustamlakachilik siyosatining avjiga chiqishi mahalliy aholi o'rtasida rus tiliga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Rus-tuzem maktablari, «usuli savtiya» maktablari o'lkaning katta-katta shaharlaridagina emas, balki qishloqlarda ham ochila boshladi. Bunday maktablarda dunyoviy fanlar, ona tili bilan bir qatorda rus tili ham o'qitilar edi. Zamon talablarini yaxshi tushungan ilg'or fikrli kishilar o'z farzandlarini bunday maktablarga bera boshladilar. Lekin o'quvchilar, rus va xorijiy tillarni mustaqil o'rganuvchilar uchun darslik va qo'llanmalar etishmas yoki yo'q darajada edi. Toshkentdagi kitobdo'koni xo'jayinlaridan birining «Turkestanskije vedomosti» gazetasida e'lon qilingan quyidagi so'zlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: «SHu kunlarda shaharliklar o'rtasida rus tiliga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Toshkent kitob do'koni xo'jayinlaridan biri shikoyat qilyaptiki, «sartlar (o'zbeklar,) hech tinchlik bermayapti, ruscha o'rganish uchun sart tilida yozilgan biror darslik bormi» deb so'rab kelishaverib jonga tegdi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, erli o'troq aholining til o'rganishga qobiliyati kuchli»⁸.

Rus tili bilan bir qatorda o'nga yaqin SHarq va G'arb tillarini ancha mukammal bilgan Isxoqxon Ibrat bu muhim masalada o'z xalqiga yordam qo'lini cho'zdi. U olti tildagi: arabcha, forsha, hindcha, turkcha, sarcha (o'zbekcha) va

⁷ Юкоридаги асар, 113—114-бетлар.

⁸ «Туркестанские ведомости», 1900, 7(20) декабрь, 98-сон.

ruscha soʻzlarni oʻz ichiga olgan «Lugʻati sittati alsina» («Olti tilli lugʻat») nomli lutat kitobini yaratdi. Isxoqxon toʻra mazkur asarni yaratar ekan, birinchi galda rus tiliga qiziquvchilarni koʻzda tutgan. Bu hol kitobning birinchi betidanoq koʻzga tashlanadi. Muallif ruscha yozuv tizimini bilmaydiganlarga ham qulay boʻlsin uchun rus soʻzlarini ham arab yozuvi bilan beradi. Maʼlumki, rus va Yevropa soʻzlarini arab yozuvida ifodalash ancha murakkab boʻlsa-da, Ibrat bu ishni muvaffaqiyatli hal qildi. Kitob qoʻlyozma holdayoq qoʻldan-qoʻlga oʻtib, nashr etilmasdanoq ziyolilar undan foydalanishga, koʻchirib olishga muvaffaq boʻlganlar. Rus tilini oʻrganish istagidagi oʻzbek ziyolilari, «usuli savtiya» maktablari oʻqituvchilari va oʻquvchilari bu asarning yaratilishidan xursand boʻldilar, koʻp nusxalarda chop etilishini sabrsizlik bilan kutdilar. Kitob bilan qoʻlyozmaligidayoq tanishgan shaxsning quyidagi soʻzlari ham buni tasdiqlaydi: «Ushbu ovoni xayriya nishonda Namangan uezdiga tobeʼ Toʻraqoʻrgʻon qozisi janob Isxoqxon toʻra oʻz tabʼlaridan chiqarib, «Sittati alsina» degan olti lugʻatlik kitob tasnif qilib, bosmaxonaga yuboribdurlar. Mazkur olti lugʻat: arabiy, forsiy, turkiy, sarti, hindiy va ruscha kitobni alhol iboralarini durust va tashihlab koʻrub turubdurimiz. Albatta, oning bosilmogʻiga ijozat berilub, nechand nusxalar bosilib chiqsa kerak. Lekin aksar ibora va lugʻatlari tashih va tagʻyir boʻlindi. Xususan, rusiya lugʻatlarini musulmoniya huruflari ilan yozmoq xoʻb qiyin va dushvor uchun ul ruscha yozilgʻon iboralarni koʻproq tagʻyir berildi va mazkur «Sittati alsina» degan janob qozining ixtiro qilgan lugʻat kitoblari, garchand kichik boʻlsa ham, bizning Turkiston viloyatimizda shuncha til bilib, bul tariqa kitob va lugʻat tasnif qilgan odam yoʻq edi. Binobarin, ul janob qozining bosma uchun yuborgan va tasni aylagan lugʻat kitoblarini koʻrub, bosma qilmoqqa ijozat berilsa kerak, deb umid aylab gazetaga yozduk. Ul lugʻatlarni koʻb koʻrib oʻqidim. Aning uchun bu soʻzni men toʻqidim».

Olimning ushbu asari XIX asrning 90-yillari oʻrtalaridayoq, muallifning chet el safaridan qaytib kelishi bilan tugatilgan boʻlsa-da, lekin mahalliy mualliflar asarlarining taʼqib ostiga olinishi, chor mustamlakachilari tomonidan Turkistonda oʻrnatilgan qattiq nazorat (senzura) tufayli asar ancha kechikib 1901 yili bosmadan

chiqdi. Buni o'sha davrda chor Rossiyasining Turkistondagi matbuot noziri vazifasini bajaruvchi N.P.Ostroumovning shaxsiy arxivida saqlanuvchi hujjatlar isbotlaydi. Arxivda Isxoqxon Ibratning N.Ostroumov nomiga yozilgan ikki maktubi sakdanadi. Birinchi maktub 1898 yili yozilgan bo'lib, unda Ibrat Ostroumovga lug'atni bosmadan chiqarishda yordam berishini iltimos qilib, murojaat etadi va uning taklifiga muvofiq kitobning ikki juz'ini yuboradi. Lekin ancha vaqtgacha asarni nashr qilish yoki nashr qilmaslik haqida hech qanday javob ololmaydi. Isxoqxon to'ra Ibrat 1900 yilning 26 fevralida ikkinchi marta rus va o'zbek tillarida xat bilan murojaat etishga majbur bo'ladi. Mazkur asarni nashr etishda katta ahamiyatga ega bo'lgan o'sha ikkinchi maktub matni quyidagicha: «1900-nchi yilda 26 fevralda. Hurmatlu Ostroumov huzurlariga savolnoma: Ushbu barobarinda siz ulug' martabadan o'tunub so'raymanki, 1898-inchi yilda sizdan iltimos qilib edim, o'z tasniflarimdan olti til uzra «Sittati alsina» degan slovar kitobni bosma qilmoq uchun. Marhamat qilib, ikki juz' yuboring, ko'rmoq uchun, degan ekansiz. Darrov amrlariga muvofiq yuborib edim. Mazkurninghech xabari bo'lmagan jihatidan boz iltimos qilib turubmanki, agarda nozirlar nazoratlaridan o'tgan bo'lsa, qabulga olinsa, men qolgan o'n juz'ini ham yuborsam va yoki qabul bo'lmagan bo'lsa, o'shal nusxani marhamat ilan Namangan mahkamasiga, maning ismimga adres etib yuborsalar, boz bo'lak maslahat qilsak, deb iltimos qiluvchi Isxoqxon to'radurman»⁹.

Ma'lumki, CHor hukumati o'lka xalqlarining madaniy-siyosiy rivojlanishidan, milliy uyg'onishdan, ayniqsa, erli aholining mutaraqiy millatlar bilan muloqotda bo'lishidan qo'rqar, shu boisdan ham o'sha davr uchun taraqqiyot kaliti hisoblangan rus tilini o'rganishga qattiq qarshilik qilar edi. SHuning uchun ham Isxoqxon Ibratning mazkur asari bir necha yil

chorizm senzurasidan o'ta olmadi. Bu ishda asosiy rolni chor Rossiyasining Turkistondagi matbuot noziri N.Ostroumov o'ynadi. «Lug'ati sittati alsina» bir necha yillik sarguzashtlardan so'ng 1901 yili Toshkentdagi V.I.Ilin bosmaxonasida nashrdan chiqdi. Isxoqxon to'ra ushbu asarni yaratishda ancha vaqt ilmiy ish olib

⁹ Ўзбекистон Марказий Давлат архиви, 1009-фонд, 115-йиғма жилд, 15—16-варақлар.

bordi, chet ellarda bo‘lib, material to‘pladi. Asar kichik muqaddima bilan boshlanadi. Unda muallif mazkur asarni yaratish uchun bir necha yil material to‘plagani, keyingi avlodlarga «bir nishon» qoldirish maqsadida kitob holiga keltirgani, asarning tuzilishi, tartibi haqida gapiradi: «... sayohat etdugum vaqtlarida Afg‘oniston, Hindiston va Forsiston shaharlari sayohatida... bir lison safar ahlina yuz oltun barobarida ishladiki, biza mushohada bo‘lib, lisonlar tahsiliga ko‘shish edub va ham dahr ahlina bir nishon qoldirmak fikrila bir necha muddati madid bu kitob tadvinina justujo‘ edub, bo‘yla bir kitob suratinda xalqg‘a namudor etdim va ham olti lisondan murakkab o‘ddug‘i uchun, «Lug‘ati sittati alsina» tasmiya edub, ikki jild ila tartib etdum»¹⁰.

Lug‘at olti tillik, ancha murakkab, o‘zbekcha so‘zlarning qarshisida arabcha, forsha, turkcha, hindcha va ruscha tarjimalari beriladi. U mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olib, 53 betdan iborat, ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qismalifbo tartibida tuzilib, har qaysi harfga alohida kichik-kichik bobchalar ajratilgan. Bu qismda fe’llarning noaniq va kelasi

zamon shakllari avval forsha, keyin arabcha, turkcha, sartcha (o‘zbekcha), hindcha va ruscha tarjimalari beriladi. Isxoqxon Ibrat mazkur asariga material to‘plar ekan, jonli tilda ko‘p qo‘llanadigan eng faol so‘zlarni kiritishga alohida e’tibor berdi. Unda iste’moldan chiqib ketayotgan arxaik so‘zlarni deyarli uchratmaymiz, lug‘atni keng xalq ommasiga tushunarli bo‘lgan arab yozuvida yaratdi. Ma’lumki, Isxoqxon Ibratga qadar ham ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha lug‘atlar yaratilgan. Masalan, V. P. Nalivkin va uning rafiqasi M. Nalivkinaning «Russko-sartovskiy slovar», «Sartovsko-russkiy slovar» asarlari shular jumlasidandir. Lekin bu asarlardan kitobxonlarrus tilini o‘rganishga qiziquvchilar unumli foydalana olmadilar. Chunki bu kitoblar rus yozuvida yaratilgan bo‘lib, o‘zbek tilini o‘rganuvchi ruslar va ruscha savodi bo‘lgan sanoqli o‘zbeklar uchun mo‘ljallangan edi. Shuning uchun ham bu asarlar rus tilini o‘rganuvchi o‘zbeklar ehtiyojini qondira olmadi. Isxoqxonning mazkur asarini arab yozuvida yaratishi sababini shuning bilan izohlash mumkin. Mana shu muhim,

¹⁰ Ибрат. Сиддикий-Ажизий, Сўфизода. Танлаган асарлар.-Т.: Маънавият.-1999. 2—3-бетлар.

nihojatda murakkab masalaga o'zbek ma'rifatparvarlari orasida birinchi bo'lib u qo'l urdi va zamondoshlari talabini birmuncha qondirishga muvaffaq bo'ldi. SHu nuqtai nazardan, lug'at muallifi zamondoshlaridan birining: «...Bizning Turkiston viloyatida sartiylardan shuncha til bilib, bul tariqa kitob va lug'at tasnif qilgan odam yo'q edi»,—degan so'zlari zaminida katta mazmun yotar edi.

I.2. Ibratning ilmiy faoliyatida publitsistikaning o'rni

Yozuv jamiyat, madaniyat va ilm-fan taraqqiyotida, madaniy merosni kelgusi avlodlarga etkazishda muhim ahamiyatga ega. Yozuvning vujudga kelishi,

rivojlanishi bir necha mingyillik tarixga ega. U odamlar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida tilga nisbatan ancha keyin vujudga keldi va rivojlandi. Yozuv til va madaniyat tarixi, uning rivojlanish bosqichlari bilan ajratib bo'lmaz darajada bog'liq. SHuning uchun ham yozuvlar tarixi bilan shug'ullanuvchi olimning zimmasida katta mas'uliyat bo'ladi. U kishilik jamiyati tarixi, madaniyati, qachonlardir aloqa quroli hisoblangan, keyinchalik o'lik holiga tushib qolgan tillar, yozuvlar bilan hamda jonli til va yozuv o'rtasidagi aloqalar bilan tanishmog'i zarur. Lekin tilshunoslikning mazkur eng qiziqarli, dolzarb, ayni zamonda juda murakkab sohasi etarli o'rganilmagan. Tilshunoslik fanining bu murakkab sohasida Isxoqxon Ibrat ancha mukammal «Jome' ul- xutut» («YOzuvlar majmuasi») nomli ilmiy asar yaratdi. Bu asarida muallif yozuvlarning eng ibtidoiysipiktografik yozuvlardan to so'nggi davr eng mukammal yozuvlargacha bosib o'tgan taraqqiyot tarixini yoritib berishga harakat qiladi. Olimning mazkur asari katta hajmda —132 betdan iborat bo'lib, 1912 yili o'z bosmaxonasi «Matbaai Ishoqiya»da nashr qilindi. Isxoqxon bu asarning yaratilish tarixi, ko'zda tutgan maqsadi, asarning nomlanishi haqida quyidagilarni yozadi: «Bul xatlarningboqiy va tariq qarori muddao bo'lib, hammillatimizga yagona bir tarix qoldirmoq qasdinda va ham olama bir asar qoldirmoq niyat etub, bu misra mujibi:

Asardurki olamg'a o'lg'ay nishon,

Kishi beasardur ketar benishon,—

mazmunicha botadvin aylab, royi soqib, arbobi xasm va arbobi fazlu kamollarga manzur qilib, millatga nishon qoldirib ham millatimiz lisoni turkiy uchun umumiy turkiy ilan sartiya xalqining naf' olmog'i muddao bo'lib, adabiyi milliyona qilmay, ravshan turkiy qildim. Millatimizningforsiyilariga ikkinchi tab'ada forsiy qilinur va jami xatlarga jome' uchun «Jome' ul-xutut» tasmiya edub, o'z xatimiz va o'z tilimiz va o'z matbaaimizda tab' qilmoq maqsad bo'lib, tab'i sharif, ahli raso va qalbi latif, ahli zakolarga peshkash qildim»¹¹.

¹¹ Исҳоқхон Ибрат. Жомеъ ул-хутут. Наманган: Матбааи Исмоқия, 1912, 6—7-бетлар. Танланган асарлар.

Isxoqxon Ibratning tilshunoslik sohasida chuqur ilmga ega ekanligi mazkur asarida ham namoyon bo'ldi. Asarda piktografik yozuvlardan keyin vujudga kelgan eng qadimiy tovush-harf yozuvlari: finikiya, yahudiy, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sanskrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg'ur va boshqa qirqdan ortiq yozuvlar, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti haqida ma'lumot beriladi. Ibrat faqat o'z vatanidagi yozuvlar namunalarini o'rganish bilan chegaralanmay, arab mamlakatlaridagi qadimiy yozuv madaniyatini ham o'rgandi. U eramizdan ilgari finikiya xalqlari tomonidan vujudga keltirilgan yozuv yodgorliklarini, Kipr orolidagi g'orlardan topilgan yozuv qoldiqlarini o'z asariga jalb etdi. Ibrat yozuvlar tarixini o'rganar ekan, tovush-harf yozuv tizimi birinchi marta finikiya xalqlari tomonidan yaratilgan va boshqa qo'shni xalqlar: yahudiy, suriya, arab yozuvlari finikiya yozuvlari asosida vujudga kelgan, degan ilmiy xulosaga keladi. Muallif ushbu asarida arab yozuvlari tarixi, ularning rivojlanish evolyusiyasiga alohida to'xtaladi. U o'z tekshirishlari natijasida quyidagi ilmiy xulosaga keladi: arab yozuvlari nabati xalqi yozuvlaridan kelib chiqqan bo'lib, VII asrdan boshlab ikki shaklda-ko'fiy va nash yozuvlari shaklida rivojlangan. Ko'fiy va nash yozuvlari asosida nisbatan sodda bo'lgan «suls» yozuvi yaratildi. Bu haqda muallif quyidagilarni yozadi: «Xatti davrondan suryoniy chiqorib, suryoniydan ko'fiy chiqorib, ko'fiydan sulsni, sulsdan ta'liqni, suls ila ta'liqdan nasta'liq kitob xatimizdurki, 900-nchi hijriyda Eronda shahri Tabriz degan baldada Xo'ja Mir Ali Tabriziy chiqarganlar. Nasx ila ta'liqdan murakkab uchun nasta'liq ism qo'yganlar. Bu xat Arabistonda joriy emas. Hindiston va Buxoro, Turkiston, Farg'ona, Koshg'ar ahli islom oralarida joriydir. Bunga sabab bu mulklarga Eron podsholariningixtiloti bo'lub, Buxoro bo'laklarni olib, ul vaktlarda joriy qilingan ekan»¹².

«Jome' ul-xutut» dunyoda mashhur bo'lgan 41 xil yozuv tizimi haqida, shu jumladan, arab xatining suls, tavqe', rayhon, zulf, humoyun, turra kabi shakllari haqida ma'lumot beradi va shu bilan birga, unda husnixat san'atiga oid fikrlar bildiriladi. Ibrat ushbu asarida rus tili bilan bir qatorda ingliz, fransuz, nemis, lotin

¹² Исхоқхон Ибрат. Жомеъ ул-хутут. Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912, 74-бет.

kabi chet tillarini o'rganish ilm-fan va madaniyatni egallashda katta rol o'ynashini ham alohida ta'kidlaydi: «Dorixonona borligi lotincha zarur. Hindistonga xat qilinsa, inglizcha bo'lmasa olmaydur, Eronistonga fransaviy. Biz turkiston(lik)larga birinchi zarurimiz rusiya xatidurki, muni qozi va mudarrislar inkor qilmaslar. Axbornoma, rapurt yozsalar, mudarrislar bo'lsa, o'ruscha biladurgan kishiga oqcha berib, rapurt yozduradurlar, alarga juda zarur. Savdogarlarga Maskovdan mol yozmoqqa zarur hukumat xati bo'lub, binobarin, ehtiyoji xalqulloh hama jihatdin buni bilmak zarurligi badehiy»¹³.

O'z zamondoshlarini, ayniqsa, yosh avlodni rus va Yevropa tillarini o'rganishga da'vat etish uning mazkur «Jome' ul-xutut» asarida alohida o'rinni egallaydi. Isxoqxon o'z salafлари ma'rifatparvar shoirlar, olimlar an'alarini davom ettirib, Rossiyaning O'rta Osiyoga qarshi olib borayotgan bosqinchilik siyosatini qattiq qoralaydi. Jamiyat hayotiga kirib

kelayotgan ilm-fan va madaniyatni, o'quv-tarbiya tizimidagi ilg'or metodlarni, ayniqsa, Ismoilbek Gasprali tomonidan asoslangan «usuli savtiya» metodini hayotga tatbiq etishga intiddi. Isxoqxon asarni yozishdan asl muddaosini quyidagicha bayon etadi: «...Bu namunalardan muddao buki, har asrda bir olam tabodul bo'lib, asr o'zgarib, olam, odam, ashyolar-hamma narsa tabodul bo'lmog'i bizga bir sarxatdur. Bunga qarab ibrat olib ish tutmak darkor. Avvali holimiz ul, emdi bul, olam yurishi shul. Binobarin, tajdidi ahvol va atvor ibrat bo'lur ekan. SHul o'ttiz yil(ga) bir nazar qarasak ko'b farklar bor»¹⁴.

Isxoqxon zamon hamisha o'zgarib, yangilanib turishini alohida ta'kidlaydi. Millatdoshlarini zamondan, taraqqiydan orqada qolmaslikka chaqiradi. Muallifning quyidagi so'zlari bunga dalil bo'la oladi: «Madaniyat xotiraga o'xshagan yangi taomil, yangi so'z, yangi xat joriy bo'lib, eski nimarsalar, diniy ishlar, bo'laklari hammasi bilkul qolib, yangi yurib ketar ekanlar... Uyingizda hozir turubdur ayon... chunonchi: chiroq qoldi-lamfa (chiqdi), chaqmoq qoldi-gugurd (chiqdi)...

¹³ Исхоқхон Ибрат. Жомеъ ул-хутут. Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912, 106-бет.

¹⁴ Ўша асар, 48-бет.

choyjo‘sh qoldi-choynak (chiqdi), qumg‘on qoldi-samovar (chiqdi) va hokazo yangi nimarsalar ko‘b joriy bo‘lib qolgan»¹⁵.

Isxoqxon Ibrat o‘zi yashab turgan zamonda ilm va fan, maorif va madaniyatning birmuncha rivojlanganligini mazkur asari «Jome’ ul-xutut»da zo‘r mamnuniyat bilan qayd etadi. U bunday rivojlanishni o‘lkaga ilg‘or madaniyat va fanning kirib kelishida deb tushundi. Ibrat o‘z davrini xonliklar davri bilan taqqoslar ekan, ilimli kishilarning ancha ko‘payganidan mamnun bo‘ladi: «Asrimiz madaniyati bor edi... CHunonchi, otash aroba, telegram, telefon, elektr fonarlar, necha xil uchadurgan ayruflon, gramafon, litograf, tifograf, anvoyi mashinalar, aftomobel, velosifid, tilsiz telegramlar, necha-necha ashyoviy jadidalar, anvoyi adidalar hammasi mavjud edi»¹⁶.

Ishokxon Ibratning jahon yozuvlari tarixiga bag‘ishlangan mazkur «Jome’ ul-xutut» asarining nashr etilishi o‘zbek matbaachiligi, madaniyati tarixida, yozuvlar tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu haqda asarga so‘ngso‘z yozgan muharrir Husain Makaev quyidagilarni ta’kidlaydi: «Eski osor va eski zamonlardagi millatlarning, xususan, SHarq xalqlarining xat va yozuvlari ila tanushlukni xohlagan ilm va fan havasliolari uchun, xususan, isloxi huruf masalalari kabi g‘oyat muhim mubohasalar jarayon etgan bu zamonda ushbu kitobda to‘blan-mish necha xil eski yozuvlar bu masalani ayrucha diqqatga sabab bo‘lsalar kerak. Fozil Ishokxon to‘ra hazratlarining ko‘b ijtihodlar sarf etib, vujudga keltirgan bu xat nusxalarining sharhindagi kitobati ila matbaaningba’zi qusurlaridan qat’i nazar, sanoyi nafisadin bo‘lgan eng eski yozuvlarni bizga umrlikka bir asar qolduruvchi bu kitobning Turkistonda nashr qilinuvi bizning uchun o‘zi bir sharaf deb bilam. Ammo millat uchun ahamiyatlik yoki ahamiyatsizligi haqidagi tanqid va fikrlarni ilm va fan hurmatina ahli qalam, fan suygan odamlarning diqqatlariga topshiram»¹⁷.

SHubhasiz, Isxoqxon Ibratning XX asr boshlaridayoq olib borgan ilmiy faoliyati uning ajoyib tilshunos olim ekanligidan dalolat beradi. Isxoqxon

¹⁵ Юкоридаги асар, 14-15-бетлар

¹⁶ Исҳоқхон Ибрат. Жомеъ ул-хутут. Наманган: Матбааи Исмоқия, 1912, 15-бет.

¹⁷ Юкоридаги асар, 132-бет.

madaniyatimiz taraqqiyoti tarixida husnixatni mukammal egallagan xattot sifatida ham katta shuhrat qozondi. Bu hol uning «San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy» va «Jome' ul-xutut» asarlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning zamondoshi Ibrohim Davronning tasdikdashicha, Isxoqxon zo'r xattot, husnixatni mukammal egallagan kalligrafdir, u bu sohada yaratgan «shoyon bir san'ati (asari)» uchun 1907 yili katta mukofotga sazovor bo'lgan. Bu haqda Ibrohim Davron quyidagilarni yozadi: «U (Isxoqxon to'ra) ham xattoti a'zamdur. Chunki musulmoncha xat yozmoqdan o'n etti nav' yozuv birla qalam yurguzurlar. Bu osori qalamiya va aqliyasidan namunai zoti, demakki, shoyon bir san'ati o'tgan yil, 1907 yilda janobi Turkiston ginirol-gubirnatorig'a taqdim qilinib, shoyistaliqiga ikkinchi daraja pocho'tnoy xalat (pochyotnyy xalat) olgan edilar».¹⁸

Ibrat bilim doirasining ancha kengligi bilan ham zamondosh shoirlar va olimlardan ajralib turadi. U ko'plab SHarq va G'arb olimlarining ilmiy asarlari bilan tanishgan. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, uning shaxsiy kutubxonasida rus va o'zbek tilidagi mahalliy gazeta, jurnal boylamlari va kitoblardan tashqari Rossiyada nashr etilgan «Niva», «Literaturnaya Niva» kabi adabiy jurnallar boylamlari, «Turkcha-fransuzcha lug'at», V.Nalivkin, M.Nalivkinalarning «Sartovsko-russkiy slovar», «Russko-sartovskiyy slovar», «Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva» asarlari, V.V.Bartold, V.V.Radlov, G.Vamberi kabi atoqli sharqshunos olimlarning o'nlab asarlari bo'lgan. Bular Ibratning Yevropa tillari va adabiyoti, rus va jahon sharqshunoslarining ilmiy asarlari bilan qiziqqanligidan, ularni mukammal o'rganganligidan dalolat beradi. Isxoqxon chin qalbdan o'z xalqining ilmiy, ma'rifatli bo'lishini istadi va bu istagini amalga oshirishda bilimini, kuch-g'ayratini ayamadi. 1916 yili yozilgan «Tarixi madaniyat» asarida xabar berishicha, keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asarlar va 30 yillik nazmiy ijodining majmui bo'lmish «Devoni Ibrat» she'rlar to'plamini yaratdi. Uning tilshunoslikka oid «Lug'ati sittati alsina», «Jome' ul-xutut» asarlaridan tashqari tarixshunoslikka oid «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat» va «Mezon uz-zamon» asarlari bizgacha etib kelgan. Ibrat bu asarlarni yaratishda rus

¹⁸ «Туркистон вилоятининг газети», 1908, 56-сон.

va Yevropa sharqshunoslari asarlaridan bahramand bo'ldi, ular bilan hamkorlik qildi. U atoqli tarixchi olim sifatida o'z ilmiy-tarixiy asarlarini yaratishda SHarq tarixnavislari asarlarini o'rganib, ulardan foydalandi. Rus va Yevropa sharqshunos olimlarining o'nlab ilmiy asarlaridan, ko'plab tarixiy manbalardan istifoda etdi. Kerakli o'rinlarda ulardan ko'chirmalar keltirdi. Muallif mazkur asarlarini yaratishda G'arb sharqshunoslarining tarixiy asar yozish metodini qo'lladi. Bu, ayniqsa, uning asar yaratish uslubida, tarixiy voqealarga munosabatida yaqqol ko'rinadi. Isxoqxon SHarq tarixchilarining ilmiy asarlarini o'rganar ekan, bu asarlarga va ularning mualliflariga tanqidiy munosabatda bo'ldi. Ayniqsa, o'z salafdari tomonidan xonlarga bag'ishlangan, ularning qonli urushlarini maqtab, mubolag'a qilib yozilgan asarlarni, xonlarga va beklarga bag'ishlab yaratilgan dostonlarni tanqid qildi. SHu nuqtai nazardan, Ibratning quyidagi so'zlari uning tarixiy asar yara-tishdan ko'zda tutgan maqsadini, estetik prinsipini yaqqol ifodalaydi: «Tarixni islom muarrixlari aksariyat ila hamma tarixlari umaroiiy bo'lub, jug'rofiy, madaniy yoki sanoiiy bo'lmay, faqat xonlarning urushlari birla ado qiladurlar. Binobarin, men bu tariximda mubolag'aga oshurub, maqtab va aqlning kosasiga sig'maydurgan so'zlarni olmay, ba'zi xurofiy so'zlarni yozmay, to'g'ri va aql kosasiga sig'adurgan so'zlarni oldim va ajnabiiy tarixlardan ko'proq yozdim... Bu «Tarixi Farg'ona»ni yozmoqdin maqsad izhori hunar yoki musannif qatoriga kirmak yoki ta'mai tiriklik yo'lidan bo'lmay, balki bani basharningtiriklik qilish, sanoat va ziroatlari, madaniyat va badaviyatlarini xalqlarga ko'rsatmak, bizdan keyin keladurganlar o'tganlarningturmush va qilmush va bilmush ishlaridan ibrat olsun. O'z zamoni bilan o'tgan zamonni torozu qilib, vaznini bilsun uchun va ham ilmi tarix bir ilmi ta'rifdur»¹⁹.

Olimning tarixiy asarlarga bunday to'g'ri munosabatda bo'lishi, xalq hayotini haqqoniy aks ettirishga intilishining asosiy omillaridan biri muallif SHarq tarixnavislari bilan bir qatorda rus va Yevropa sharqshunos olimlarining asarlarini chuqur o'rganganligidadir. Rus va Yevropa tillarini ancha mukammal bilgan Isxoqxon Ibrat sharqshunoslarning asarlarini originalda o'qigan. Ibrat o'z ilmiy

¹⁹ Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. Ўз ФАШИ Қўлёзмалар фонди, инв. № 11080, 3-4-бетлар.

asarlarini yaratishda rus sharqshunoslari V.V.Radlov, V.V.Bartold, G.Vamberi asarlaridan foydalandi, bu asarlarga o'z munosabatini bildirdi. Jumladan, muarrixning quyidagi so'zlari bunga dalil bo'la oladi: «Sulton Sodiq Bug'roxon amri bilan nazm «Qutadg'u bilig» degan tarix YUsuf Hojib tarafidan uyg'urcha-o'zbek tilida yozulub, ani Radlov ruscha, turkcha, nemischa ko'b jildda tab' qilgan. Mundan boshqa islomdan avval bo'lgan asarlar Farg'onada matruk bo'lgan, bu sababdan hozirda islomdan avvalgi holi bizga qorong'u. Bartold degan Peterburgdan kelib, munda yurub, necha vaqtlar muomala va ma'lumotlar olib ketgan edi. Mana, tarix qilib, matbuotda nashr bo'ldi. Ko'b kishilar foyda ko'rub turubdilar va so'nggidan Vamberi degan Xitoyiston Koshg'arini aylanib chiqib, ko'b tarixlar nashr etdi, bizga tarix bo'lub turubdur. Bularni ko'rganda, bizga nega o'z mamlakatimizning hamma ishlaridan avlodi basharga bir nishona qoldurmaduk degan afsus bor»²⁰.

Isxoqxon Ibrat o'zining tarixiy asarlarini yaratishda V.Nalivkin asarlaridan, ayniqsa, «Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva» (Qozon, 1886) asaridan keng foydalandi, ko'p o'rinlarda unga tanqidiy munosabatda bo'ldi. Isxoqxon ilmiy-tarixiy asarlarini yaratishda katta mas'uliyat his qildi,

tarixiy voqealarni, faktlarni ob'ektiv baholashga alohida e'tibor berdi.

Ibrat XIX asrning birinchi yarmi - Muhammad Alixon hukmronlik qilgan davr to'g'risida gapirar ekan, o'zbek xalqi hayoti, madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan 1842 yilgi mudhish voqealarni chetlab o'ta olmaydi. Ma'lumki, Buxoro amiri Nasrullo xuddi shu yili Qo'qonga bostirib kirib, shaharni talagan va xalqni xonavayron qilgan edi. Isxoqxon o'zining «Tarixi Farg'ona» asarida buyuk shoira, mutafakkir, davlat arbobi Nodirabegimning hayoti va faoliyati haqida ancha qiziqarli, shu bilan birga, o'sha mash'um voqea shohidlari fikr mulohazalarini keltiradi, Nasrulloning Qo'qonda uyushtirgan qirg'iniga alohida to'xtaladi. Muallif, ayniqsa, Nodira va uning norasida nabiralarining amir Nasrullo tomonidan o'ldirilishi voqeasini yozar ekan, o'zining hayajonini, Nasrulloga bo'lgan nafratini yashira olmaydi. Asarda muarrix qatl etilgan norasida farzandlar onasining amirga

²⁰ Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона, Ўз ФАШИ Қўлёзмалар фонди инв. № 11080, 17-18-бетлар.

nafrat bilan aytgan quyidagi soʻzlarini keltirgani ham ushbu fikrni quvvatlaydi: «Ey zolim Otasi senga osiy boʻlgan bu norasida nima gunoh qildi. Berahm zolim, qizil qonga boʻyading. Sen ham mendek nuri chash-mingdan ajrab, xonavayron boʻl»deb alfoz ila ogʻziga nima kelsa qaytarmay, amirni hech pisand qilmay turganda, oni yaqinlarininghammasini soʻydirgan ekan»²¹. Isxoqxon mazkur voqealarni bayon qilar ekan, faqat oʻz taassurotlarini yozish bilan cheklanib qolmadi. Ayni vaqtda oʻsha davr shoirlarining bu mudhish voqeaga bagʻishlangan tarixlaridan, marsiyalaridan namunalar keltirdi. Bu esa asarning badiiy qiymatini yanada oshirgan. Muarrix Amir Umarxon saltanati davrini qalamga olar ekan, uning shoirlik iqqidoriga yuqori baho beradi, uni «jannatmakon», odil xon sifatida taʼriflaydi. Umarxon davrini ilm-fan, madaniyat va adabiyot-sanʼat rivojlangan davr sifatida baholaydi. Uning saroyida ijod qilgan Fazliy Namangoniy, Sultonxon toʻra Ado, Xijlat, Afsus, Gulxaniy, Maxmur, Bexjat, Hoziq, Gʻoziy, Nodir kabi shoirlar haqida qimmatli maʼlumotlar beradi. Adib asarda Qoʻqon xonligida hukmronlik qilgan xonlar faoliyatini xronologik izchillikda bayon qiladi. Ayniqsa, Qoʻqon xonligining soʻnggi hukmdori Xudoyorxon davriga, uning xon sifatidagi faoliyatiga, qipchoq qirgʻini voqealariga alohida toʻxtaladi. Oʻrta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va u keltirgan fojialarga keng oʻrin beradi, yaʼni 104—155-betlar shu tarixiy voqeaga bagʻishlangan. Maʼlumki, oʻzbek mutafakkirlari, davlat arboblari tarixga haqqoniy baho berganlar, ular tarixiy voqealar oqimini, ayniqsa, Rossiyaning SHarqqa nisbatan bos-qinchilik siyosatini ancha ilgari, qariyb 20—25 yil ilgari tushunib etganlar. Buyuk yozuvchi Abdulla Qodiriy «Oʻtgan kunlar» romanining bosh qahramonlaridan biriYUsufbek hoji tilidan «Qipchoklar qirgʻini» munosabati bilan quyidagilarni bayon qilgan edi: «Beklar Manim mulohazam yurt, el manfaati nuqtasidan turib aytiladur Men hech bir vaqt inkor qila olmaymanki, yolgʻiz oʻz gʻarazi yoʻlida ish qiluvchi palid kishilar qipchoqlar orasida bor boʻlganidek, bizda ham yoʻq emas... Balki anovilarda oʻnlab boʻlsa, bizda yuzlab bor Oʻzi bizning koʻzimizga itdek sovuq koʻringan qipchoqvachcha Normuhammadning el uchun qilib turgʻan toʻgʻri

²¹ Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона, Ўз ФАШИ Қўлёзмалар фонди, инв. № 11080, 54-бет.

xizmatini men o'z umrimdagi Toshkand beklari orasida birinchi martaba ko'raman. Buni siz, yaxshilar ham inkor qila olmassiz Bas, ayb qipchoqda emas, balki uning manfaati shaxsiyasi yo'lida ish ko'rguchi boshliklarida va qipchoqlar o'ylag'ondek gunoh qora choponlilarda bo'lmay, balki uning uch-to'rtta ma'nisiz beklarida, birodarlar, o'rus o'z ichimizdan chiqadurg'on fitna fasodni kutub, darbozamiz tegida (Oqmasjid yoki Olmota yonida demoqchi) qo'r to'kib yotibdur. SHunday mahshar kabi bir kunda biz chin yovg'a beradurgan kuchimizni o'z qo'limiz bilan o'ldirsak, sen falon deb qirilishsak, holimiz nima bo'ladur? Bu to'g'rida ham fikr qilg'uchimiz bormi? Kunimizning kofir qo'lig'a qolishi to'g'risida ham o'ylaymizmi yoki bunga qarshi hozirlik ko'rib qo'yg'anmizmi. Hoji o'zini tutolmay ko'z yoshisini oq soqolig'a quyub davom etdi: Mana, birodarlar Siz o'z qipchog'ingiz uchun qabr qazig'on fursatda sizga ikkinchilar tobut chopadur, biz qipchoqqa qilich ko'targanda o'rus bizga to'p o'klaydur. Siz dunyoda o'zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko'rasiz, men boshqa yovni har zamon o'z yaqinimg'a etgan ko'raman—dedi va ro'ymoli bilan ko'z yoshisini artib, O'rnidan turdi. Agarda dunyodan o'tayozgan bir keksangizning maslahatiga quloq bersalaringiz, bu fikringizdan qayting, birodarlar Illo YUsofбекни o'ldiga chiqarib, bu shum ishingizdan meni tashqarida hisoblangiz—dedi va majlisning «o'ltiring», «to'xtang» so'ziga quloq solmay, o'lturishni tashlab chiqdi». Ushbu so'zlar XIX asr o'rtalaridagi o'zbek davlat arboblardan birining Rossiya osiy bo'lgan bu norasida nima gunoh qildi? Berahm zolim, qizil qonga bo'yading. Sen ham mendek nuri chash-mingdan ajrab, xonavayron bo'l»deb alfoz ila og'ziga nima kelsa qaytarmay, amirni hech pisand qilmay turganda, oni yaqinlarining hammasini so'ydirgan ekan»²².

Isxoqxon mazkur voqealarni bayon qilar ekan, faqat o'z taassurotlarini yozish bilan cheklanib qolmadi. Ayni vaqtda o'sha davr shoirlarining bu mudhish voqeaga bag'ishlangan tarixlaridan, marsiyalaridan namunalar keltirdi²³. Bu esa asarning badiiy qiymatini yanada oshirgan. Isxoqxon Ibrat «Tarixi Farg'ona»,

²² Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона, Ўз ФАШИ Қўлёзмалар фонди, инв. № 11080, 54-бет.

²³ Юқоридаги асар, 55-57-бетлар.

«Tarixi madaniyat», «Mezon uz-zamon» kabi asarlarida ham o'zining pedagogik-ma'rifatparvarlik qarashlarini ilgari surdi. U chet el sayohati vaqtida texnika va madaniyat rivojlangan shaharlarda bo'ldi. Turkiston shaharlarining ham madaniy shaharlar qatoridan o'rin olishiga ishondi. Buni amalga oshirishning birdan-bir yo'lini ilm-fanda, o'qish-o'rganishda, deb biddi: «Bizning Rusiyada Petrograd, Maskov, Ades (Odessa) va shunga o'xshash shaharlar bor. Fransiyada (Yevropada demoqchi) Faris, Berlin, Vena va Madrid, London, Rumo, Vashington, SHarqda Tokio, Istanbul. Mundan bo'lak necha-necha shaharlar bor, o'zi kichkina bo'lsa ham madaniyat topgan. Bu madaniyat shaharlari madaniyatni nima birlan topgan? Ilm birlan, o'qub... Madaniyatni topadurgan va yurguzadurgan asbobi ilm ekan» deb takidlaydi. SHu tufayli xalqning ilm olish masalasiga jiddiy yondashishga chaqiradi.

O'rta Osiyoda XIX asr oxiri XX asr boshlarida madaniy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikr taraqqiyotida matbuot, nashriyot muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbek ziyo-lilari Sattorxon, Furqat, Komil Xorazmiy, Ishokxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Mirmuhsin SHermuhamedov Fikriylar o'zlarining ilg'or qarashlarini yoyishda matbuotdan minbar sifatida foydalandilar. SHuning uchun ham XX asr boshlarida ilg'or, hozir javob publitsistika janri etakchi o'rin tutdi. Publitsistika o'zbek adabiyoti uchun yangi janr bo'lishiga qaramay, o'zbek ma'rifatparvarlarining jangovar minbariga aylandi. SHuning uchun ham Ishokxon to'ra Ibrat qator publitsistik maqola va she'rlarida matbuotning xalq ma'naviy-madaniy hayotidagi ahamiyatiga yuksak baho berdi. O'zbek ma'rifatparvarlari o'zlarining ilk publitsistik asarlarini o'zbek tilida birinchi bor chiqqan «Turkiston viloyatining gazetisi»da e'lon qildilar. Bu gazeta CHor Rossiyasining O'rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishni tezlashtirish, erli aholini ruslashtirish maqsadini ko'zda tutgan bo'lsa-da, o'zbek ma'rifatparvarlari bu gazeta sahifalaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalandilar. Isxoqxon Ibrat ham bu janrda qalam tebratdi va hajm, mazmun, mavzu e'tibori bilan diqqatga sazovor publitsistik maqolalar, she'rlar yaratdi. Uning biz to'plagan maqolalari 45 dan ortiq bo'lib, shulardan 35 tasi «Turkiston viloyatining gazetisi»

sahifalarida bosilgan. Ibrat publitsistikasining asosini ma'rifatparvarlik g'oyasi tashkil qiladi. U dastlabki maqolalaridan boshlab mehnatkash xalq boshidagi og'ir mustamlaka zulmini fosh etishga, xalqni ma'nan uyg'otishga harakat qildi. Yangicha «usuli savtiya»—«usuli jadid» maktablarini ochish va bu maktablar uchun darslik va qo'llanmalar yaratish ishiga alohida ahamiyat berganligi sababi ham shunda. Bu yo'nalishdagi harakatlar ommaviy tus oldi. Yangicha ma'rifatparvarlik darajasiga o'sib chiqsi, doirasi kengaydi. Ular xotin-qizlar masalasiga ham alohida e'tibor berdilar. SHoir va ilg'or maorifchi Muhammadsharif So'fizoda «ona bo'lg'uvchi qobila qizlar»ning ilm-fan egalari bo'lishlarini orzu qiladi:

Bechora ona bo'lg'uvchi qobila qizlar,

Nozik qo'liga olmay o'tar xoma va daftar.

Ibrat ko'zimiz ko'r, haqiqat qulog'imiz kar,

So'z to'g'risi shul, bizda bor avra va na astar.

Ma'rifatparvarlar xalqning porloq kelajagiga zo'r umid bilan qaradilar. Isxoqxon Ibrat «usuli savtiya» maktablarini tashkil etish, ularni darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash ishiga bosh-qosh bo'ldi. «Matbaai Ishoqiya»da shunday darsliklar va o'quv qo'llanmalarini nashr ettirdi. «San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy», «Ilmi Ibrat» va boshqalar shular jumlasidandir. Uning publitsistik maqolalari va munozaralarida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Isxoqxon Ibrat bilan Toshkent shahar Sebzor dahasidagi eski maktabdor Mulla Husanxo'ja eshon o'g'li o'rtasidagi munozara ushbu fikrni quvvatlaydi. Bu munozara «Turkiston viloyatining gazetisi»ning 1907 yilgi bir necha sonlarida bosilib chiqdi. Mulla Husanxo'ja domla o'z maktabini engil-elpi isloh qilib, «jadid maktabi» deb e'lon qiladi. Ko'plab bolalarni o'z maktabiga targ'ib etadi: «Mulla Husanxo'ja eshon o'g'li ushbu 1907 yilning birinchi sentyabridan boshlab biz sartiya bolalariga o'qitadurg'on usuli qadimiyamizni usuli jadid tartibig'a olib, jamoa-jamoa qilib o'qitadur. CHaroki, mazkur tariqa tartibida maktab bolalarining tez fursatda savodlari chiqib, ko'b foydalar hosil bo'lur ekan. YAna shulki, bull tartibning hech nimarsaga moneligi bo'lmas ekan. Sabab shulki, beshinchi jamoa

birlan tamom bo‘lur ekan. Birinchi jamoa «Hafti-yaki sharif», ikkinchi jamoa «Kalomi sharif», uchinchi jamoa «CHahor kitob» bilan «Fuzuliy» yoki «Navoiy», to‘rtinchi jamoa «Ilmi faroyiz» o‘qub, tamom qilib, muddati ikki yil yoinki uch yil miyonasida madrasalarda o‘qimoqni xohlaganlari madrasalarga chiqib o‘qimoqg‘a qodir bo‘lur ekanlar»²⁴.

YUqoridagi so‘zlardan ma’lum bo‘ladiki, Mulla Husanxo‘ja o‘z maktabini «isloh» qilib, hech qanday ijobiy o‘zgarish kiritgani yo‘q (jamoajamoa qilib o‘qitishdan tashqari). Vaholanki, bu paytda «usuli savtiya» metodi asosida Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Munavvarqorining «Adibi avval» alifbo darsliklari nashr kilingan, yangi o‘qituv metodlari vujudga kelayotgan edi. Isxoqxon to‘ra Ibrat «jadid maktabdor» Husanxo‘ja domladan ranjiydi, uning maktabini xalq bolalarini aldash uchun, ko‘proq bolalarni jalb qilib, katta daromad olish uchun ochilgan maktab deb hisoblaydi. Mulla Husanxo‘ja domla o‘zining «Toshkand musulmon maktablari haqida» maqolasida qadim (eski) maktablarni targ‘ib etib, yangi usuli savtiya maktablarini tanqid qiladi va eski maktablarni usuli savtiya maktablaridan ustun qo‘yadi. SHu bilan birga, u eski maktablarni nomiga engil-elpi isloh qilish, ya’ni o‘quvchilarni kaltak bilan jazolash usulini bekor qilish, o‘quvchilarni jamoajamoa qilib o‘qitish va davomatni tartibga solish shiori bilan chiqdi²⁵.

Bu isloh o‘quv-tarbiya saviyasini qo‘tarishda sezilarli natija bermasligini ta’kidlagan Isxoqxon to‘ra Ibrat shunday yozadi: «Muallim bechora aziz farzandlarimizni kaltak, qamchi yo‘q bahonasi-la besh-o‘n sanalar osmonga qaratib, «alif bazavar, bezavar» deb shovqin qildirib-qildirib, bir harf ham o‘quvyozuv bildirmayincha umrlarini barbod qilib yotmoqg‘a taqviyatgina bo‘ladur²⁶.

Xalq farzandlarining o‘n-o‘n besh yillab maktab va madrasa tuprog‘ini yalab, oxiri savodsiz yoki chalasavod bo‘lib chiqishlari Ibratni iztirobga soldi. U bunday maktablar o‘rnida yangi, zamona talabiga javob bera oladigan, zamonaviy ilmlar o‘qitiladigan maktablar barpo etish shiori bilan chiqdi. Eski maktab

²⁴ «Туркистон вилоятининг газети», 1907 йил 6 сентябрь, 66-сон.

²⁵ «Туркистон вилоятининг газети», 1907 йил 6 сентябрь, 66-сон.

²⁶ «Туркистон вилоятининг газети», 1907 йил 6 сентябрь, 66-сон.

o'qituvchilarining johilligini, avlodni tarbiyalashga, bilim berishga qodir emasligini ta'kidlaydi. Isxoqxon Ibrat mazkur maqolasida «usuli savtiyai tadrijiya» metodini targ'ib qilar ekan, u birinchi navbatda, o'z amaliy faoliyatiga, yangi ilg'or pedagogika yutuqlariga suyandi²⁷.

YUqorida aytilganidek, Ibrat 1886 yildayoq eski maktablarga nisbatan birmuncha ilg'or bo'lgan maktab ochdi. 1907 yili yangi «usuli savtiya» maktabini tashkil etdi. Bu maktabda 25 nafar qishloq bolalarini o'qitdi. Maktab o'z uyidayorug', derazali xonaga joylashgan bo'lib, yangi o'quv qurollariparta, stol-stul, yangi kitoblar, darsliklar, daftar, qora taxta (doska), kurrai arz (globus) kabilar bilan jihozlandi. O'qitish ishlarini o'zi tuzgan dastur asosida olib bordi. Isxoqxon Ibrat o'z maktabida darslik va qo'llanmalar sifatida Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Ali Asqar Kalinning «Muallim us-soniy», Munavvarqorining «Adibi avval» darsliklaridan, o'zi yaratgan «Lug'ati sittati alsina», «San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy» asarlaridan foydalandi. Isxoqxon Ibrat yangicha ta'lim-tarbiya tizimining afzalliklarini isbotlashda ko'proq o'zi erishgan yutuqlarga, amaliy faoliyatga o'zi tatbiq qilgan yangi usullarga asoslandi. Mutafakkirning quyidagi fikrlariga e'tibor bering: «Men o'zim ham o'zimga qarashlik o'nta-o'n beshta bolalarni eski maktabda hech bahra topmay, behuda yurduqlarina jonim achib, Qozon tarafidan... bir mulla (Husayn Makaev) jalb edub, maktab qilib berdim. Maktabning kushodig'a uch oy bo'lgan yo'q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar, o'n-o'n beshta odamlar «alif nima?» degan savolina «kaltak» deb javob beruvchilar tamomi savodi chiqib, har narsani yozadurgan bo'ldilar. To'rt-beshta etti va sakkiz sanalar Qo'qonda yurub, hech narsa bilmagan mullabachchalar bitamomihi arabiy mukolamag'a qodir bo'lub, har bir kitoblarni mutolaa etadurgan bo'ldilar. SHul sababdin biz tajriba qilib, bul o'qutishga (usuli savtiyaga) tamom ixlos qildik»²⁸.

Ishokxon Ibrat ilg'or maktabdor sifatida o'z maktabida haftalik dars jadvalini joriy qildi. Bu haqda uning sobiq o'quvchisi Mirzaboy G'iyosov shunday deydi:

²⁷ «Туркистон вилоятининг газети», 1907 йил 6 сентябрь, 66-сон.

²⁸ «Туркистон вилоятининг газети», 1907, 72-сон.

«Biz maktabga oldindan tuzib qo'yilgan haftalik dars jadvali bo'yicha darslarga tayyorlanib kelar edik. Har bir darsdan keyin tanaffus bo'lar edi». O'zbek mutafakkirlari - jadidchilik harakatining Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Isxoqxon Ibrat kabi namoyandalari Vatan va millatni yuksak taraqqiyot darajasida ko'rishni orzu kildilar va bu orzularini amalga oshirishning birdan-bir yo'li sifatida maktab va madrasalarni tubdan isloh qilish masalasiga butun kuch-g'ayratlarini, bilimlarini safarbar etdilar. Ular o'z faoliyatlarini bir-birlaridan ajralgan holda emas, o'zaro hamkorlikda, hammaslaklikda, yaqin aloqa bog'lagan holda yo'lga qo'ydilar. Munavvar qori Abdurashidxonov Behbudiyning «Oyna» jurnalida, «Samarqand» gazetasida o'z maqolalari bilan qatnashsa, Isxoqxon to'ra Ibrat Toshkent jadidlari rahbarlik qilgan «Sadoyi Turkiston», Farg'onadagi «Sadoyi Farg'ona» gazetalarida faoliyat ko'rsatdi. U Munavvar qori taklifiga binoan bir necha marta Toshkentda, uning maktabidagi imtihonlarda qatnashgan. Munavvar qori Isxoqxonga maxsus taklif xati bilan 1907 yilda murojaat qiladi: «Hurmatlu Isxoqxonhoji janoblarina 1907 yil may oyidan e'tiboran Toshkentda Tarnovboshi mahallasida «Xoniya» maktabinda talabalarni yillik imtihonlari boshlanur. Siz hurmatludan rajo qilurmizki, tavobiingizda bo'lg'on usuli jadidiya maktablari muridlari ila imtihon majlislarina tashrif qilsangiz, muallim va shogirdlar Sizdan mamnun bo'lur edilar. Muhibingiz Munavvar Qori, 15 mart 1907 yil». Bu taklifga binoan Isxoqxon Ibrat o'z yaqinlari Husain Makaev (Isxoqxon Ibrat ochgan maktabda dars bergan tatar muallimi, 1910 yildan «Matbaai Ishoqiya»da mudir vazifasida ishlagan) va shogirdi Mulla Iskandar domla Abduvahob o'g'li bilan 1907 yili bir necha oy Toshkentda bo'ldi, «usuli savtiya» maktablarida Munavvarqori joriy qilgan imtihonlarda ishtirok etdi. «Usuli jadid» maktablari bilan bir qatorda xususiy «usuli qadim» maktablarida ham bo'ldi. Isxoqxon Ibrat 1908 yili juda katta xayrli ishga qo'l urdi: u Ufa va Orenburg shaharlarida bo'lib, orenburglik Gaufman degan matbaachidan pulini o'n yil mobaynida to'lash sharti bilan 1901 yili chiqqan litografik mashina sotib oldi. Isxoqxon litografiya anjomlarini katta mashaqqatlar bilan Orenburgdan Qo'qonga poezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'onga tuyalarda olib keldi. 1908 yil aprel oyida

o‘zi 1905 yili qurdirgan hammom o‘rnida chopxona tashkil qildi va «Matbaai Ishoqiya» nomi bilan ishga tushirdi. Bu ishda qishloq aholisi unga yaqindan yordam berdi. Harf o‘yish uchun Mirzaboy G‘iyosov katta yong‘og‘ini kesib berdi va o‘zi ham ushbu matbaada ishladi. Matbaa ishlaridan xabardor bo‘lgan Husain Makaev Isxoqxon bilan yonma-yon turib ishladi. Turkistonning chek-ka qishlog‘ida matbaaning vujudga kelishi o‘zbek xalqining fan va madaniyat sohasidagi katta yutug‘i edi. Matbaani tashkil etishdan ko‘zlagan maqsadi haqida Isxoqxon Ibrat quyidagilarni yozadi:

Maqsad bu ishdan erdi olamga ilm kasri,

Ham qo‘ymoqqa asarlar yod ovari jahona...²⁹

Turkistonning ilk matbaachilaridan biri Isxoqxon Ibrat o‘zining bu amaliy faoliyati bilan XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi idg‘or ma‘rifatparvarlar g‘oyalarini yana bir pog‘ona yuqoriga ko‘tardi. Bu matbaada turli kitoblar, savod chiqarishga oid risolalar, darsliklar, plakatlar, otkritkalar muntazam nashr etib turildi. Ibrat «Maqsad bu ishdan erdi olamga ilm kasri» deb ko‘rsatganidek, bu litografiya o‘z faoliyatini ilm-ma‘rifat tarqatishdan boshladi. U bu erda birinchi marta 1908 yili «San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy» asarini nashr qildi. Bu to‘g‘rida 1908 yilda litografiyaga mudirlik qilgan Oxunzoda Abdurauf SHahidiy quyidagilarni yozadi: «Qobiliyat va salohiyatlari qaviy, zakovat va fatonatlari joyida bo‘lgan g‘ayratlik talabalar va yosh muallimlarimiz biron qit’ai hol xat namunasiga noil bo‘lsunlar. Boqiy duo umid qilib, yangi va eski usul maktab va madrasalarimiz va ahli kitobot va xattotlarimizga ta’lim va ta’limi kitobat xususidagi birinchi hadyamizni ojizona taqdim ayladik. Agar jolibi diqqat bo‘lursa, oz va ko‘b xohlaguvchilar To‘raqo‘rg‘onda «Matbaai Ishoqiya»ga deb yozsalar, har nusxasini 25 tiyindan hisoblab, tavaqqufsiz yuborilur... Mudiri «Matbaai Ishoqiya» Oxunzoda Abdurauf SHahidiy»³⁰.

Isxoqxon matbaasiga nur taratayotgan quyosh tasvirini ishlab, quyosh ichiga «ilm» so‘zini yozgan. Bu bilan Ibrat ilmni nur sochayotgan quyoshga o‘xshatadi.

²⁹ Исхоқхон Ибрат. Илми Ибрат. — Турақўрғон: Матбааи Исҳоқия, 1909, 14-бет.

³⁰ Санъати Ибрат, қалами Мирражаб Бандий. - Тўрақўрғон: Матбааи Исҳоқия, 1908, 12-бет.

Bu ramziy tasvir mazkur matbaada chop etilgan kitoblarning ko'pida mavjud. Matbaa ochilgan yiliyoq uni kengaytirish, o'lkada eng ko'zga ko'ringan bosmaxonalardan biriga aylantirish uchun harakat kildi, kerakli anjomlar tayyorladi. Litografiya o'z xarajatlarini qoplash va kredit qarzidan qutulish maqsadida turli buyurtmalar qabul qilish uchun ba'zi asarlar oxiriga quyidagi mazmunda e'lonlar bergan: «Ushbuni e'lon etamiz, ushbu kundan ibtidoan matbaamizda zakazlar qabul qilinadur. CHunonchi: risolalar, e'lonnomalar, har xil blankalar va tabriknomalar, ishcho'tlar, kartochkalar, maktub varaqlari, har nima chop etmoq mumkin. Nimarsalar g'oyat yaxshi va nafis o'ziga bop qog'ozda chop qilib, ziynatlab, shoyon tamosho qilib, mushtariylarimizni husni rizolariga mazhar bo'lmoq sa'y va ijti hodimizdur, xossatan vazifamizdur... Matbaaimizni viloyatda tanho qilmoq avvaldan matlabimizdur. Anqarib urufot bosmaxonasi ham ochilur, asboblari ham tayyor. Hukumatdan ijozat olingan»³¹.

Bu so'zlardan ko'rinib turibdiki, Isxoqxon matbaa ochilgan yiliyoquni kengaytirish, o'lkada eng ko'zga ko'ringan bosmaxonalardan biriga aylantirish uchun harakat qilgan, kerakli anjomlarni tayyorlagan, hukumatdan ruxsat ham olgan. 1908—1909 yillarda To'raqo'rg'onda matbaaga Abdurauf SHahidiy mudirlik qilgan. Isxoqxonning harakatlari zoe ketmadi. Xalq o'rtasida kitob va turli risolalarga talab ortishi natijasida litografiya 1910 yili Namangan shahriga ko'chirildi va tipolitografiyaga aylantirildi. 1910—1913 yillarda matbaa mudiri bo'lib Husain" Makaev ishladi, 1913—1917 yillarda esa matbaaga M.N. Abdusattorov rahbarlik qildi. Bu davrda matbaa Turkiston miqyosida katta ahamiyat kasb etdi, «Matbaai Ishoqiya»da katta hajmdagi asarlar ham nashr qilina boshladi. Oktyabr to'ntarishi tufayli bosmaxona musodara qilindi. Orenburgdan olib kelingan mazkur litografik mashina sho'rolar hokimiyati davrida ham katta manfaat keltirdi. Bu davrda «Narodnaya gazeta», «Erkinlik», «Ishchilar qalqoni», «Sovdeb», «Rosta» kabi gazetalar rus va o'zbek tillarida shu matbaada nashr qilindi. Namangandagi hozirgi Isxoqxon Ibrat nomidagi matbaa-bosmaxona «Matbaai Ishoqiya» asosida tashkil topdi. Ishokxon Ibrat olib kelgan litografik

³¹ Исҳоқхон Ибрат. Илми Ибрат. - Тўрақўрғон: Матбааи Исҳоқия, 1909, 16-бет

mashina 1952 yili To‘ra‘o‘rg‘on bosmaxonasiga yuborildi va «Uchqun» nomli Namangan tuman gazetasini muntazam chiqarib turishda foydalanildi (1960 yilgacha). Isxoqxonning husnixatga, xat-savod chiqarishga bag‘ishlangan «San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy» risolasi, «Ilmi Ibrat» nomli she’rlar to‘plami, yozuvlar tarixiga bag‘ishlangan «Jome’ ul-xutut» kabi asarlari o‘zi tashkil qilgan matbaada nashr etildi. Abdurauf Samadovning (Abdurauf SHahidiy) o‘zbek yozma dramaturgiyasi ilk namunalaridan bo‘lgan «Mahramlar» p’esasi ham «Matbaai Ishoqiya»da nashr etildi. Ilmiy adabiyotlarda birinchi o‘zbek dramasi sifatida Behbudiyning «Padarkush» asari qabul qilingan bo‘lsa ham, Behbudiy dramasiidan bir yil oldin Abdurauf Samadov SHahidiy «Mahramlar» dramasiini yozgan edi. Namangan matbaasi mahsulotining kun sayin ortib borishi shahar va qishloqlarda kitob do‘konlari va bozorlarining birmuncha ko‘payishiga sabab bo‘ldi. 1910 yildan boshlab Namangan shahrida 13 ta, CHustda 2 ta, Popda 2 ta, YAngiqo‘rg‘onda 1 ta, To‘ra‘o‘rg‘onda 1 ta kitob do‘koni ochildi. Bu do‘konlarda, asosan, «Matbaai Ishoqiya»da nashr qilingan kitoblar juda arzon narxlarda sotilar edi. Bu matbaada, asosan, ma’rifatparvarlikka oid risolalar nashr qilingan. Bu ishda asosiy tashabbusni Isxoqxon Ibrat ko‘rsatgan. Maorif madaniyat targ‘ibi hamda xalq ongining shakllanishida gazetasining ulkan ahamiyatini tushungan Isxoqxon Ibrat 1913 yili «Matbaai Ishoqiya» qoshida «At-tijor al-Namangan» nomida gazeta chiqarishga harakat qildi, hukumatga ariza ham berdi. Bu haqida Orenburgda chiqadigan, O‘rta Osiyoda va turkiy dunyoda ancha mashhur bo‘lgan «Vaqt» gazetasi katta mamnuniyat bilan quyidagilarni yozadi: «Namangan. Mo‘‘tabar andin Ishoq qozi hazratlari «At-tijor al-Namangan» isminda bir gazeta chiqararg‘a so‘rab ariza berdi. Bu zot 1908-nchi yilda Namanganda bir matbaa ochgan edi. Bu yil «Kutubxonai Ishoqiya» isminda kutubxona ochib, turk, tatar, o‘zbek tillarinda bo‘lg‘on adabiyot kitoblari oldirdi. Hozir gazeta chiqar-moq haddindadur. CHin ko‘nguldan muvaffaqiyat tilaymiz».³²

Taassufki, Isxoqxon bu gazetani nashr etishga muvaffaq bo‘la olmadi. Lekin o‘z uyida anchagina boy kutubxona tashkil qildi va uni «Kugubxonai Ishoqiya»

³² «Вақт» газетаси, 1913 йил.

deb atadi. Ibrat arxividagi kitoblar ro'yxati shuni tasdiklaydiki, kutubxonada ta'lim-tarbiya va o'qitishga oid o'zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillarida ko'plab kitoblar bo'lgan. Bu kutubxonadan nafaqat o'zi, qishloq aholisi ham unumli foydalangan. Isxoqxon Ibrat o'z maktabi o'quvchilarini kutubxonada saqlanuvchi kitoblar bilan ta'minlagan. Kutubxonaning maktab o'quvchilariga bag'ishlangan. qismida Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Abdulla Avloniyning «Birinch muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», Rustambek YUsufbek hoji o'g'lining «Rahbari hisob» (1912), S. M. Gramenitskiyning «Pervaya kniga dlya chteniya», «Vtoraya kniga dlya chteniya», Namangan rus-tuzem maktabi o'qituvchisi M. M. Oraqulovning «Samouchitel russkogo yazpsa dlya russko-musulmanskix shkol», V.P.Nalivkin va M.Nalivkina tuzgan «Sartovsko-russkiy slovar», «Russko-sartovski slovar» kabi asarlar, 50 dan ortiq darslik va qo'llanmalar, ta'lim va tarbiyaga oid kitoblar bo'lgan. Bulardan tashqari, «Kutubxonai Ishoqiya»da o'zbek va fors-tojik shoirlarining mingdan ortiq qo'lyozma va bosma kitoblari ham saqlangan. Ma'lumotlarga qaraganda, O'zFASHI qo'lyozmalar fondida saqlanuvchi YUsuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarining Namangan nusxasi deb nom olgan nodir qo'lyozmasi «Kutubxonai Ishoqiya»ga mansub bo'lgan. Kutubxonada rus va Yevropa sharqshunoslari Xerman Vamberi, V.V.Radlov, V.V.Bartold, V.P. Nalivkin, N.P.Ostroumovlarning o'nlab asarlari bor edi.

Ishokxon Ibrat kutubxona a'zolarining kitob olish va o'qib bo'lgach, uni topshirish daftarlarini ham tashkil etgan. A'zolar, ayniqsa, yoshlarning kitob o'qishlarini Isxoqxonning o'zi nazorat qilib borgan. Kutubxonadagi kitob fondi yil sayin kattalashib, a'zolar soni ortib borgan. «Kutubxonai Ishoqiya» kitob fondining kattalashib borishida «Matbaai Ishoqiya» katta rol o'ynagan. Bu matbaada chop etilgan kitoblarning deyarli hammasidan bir necha nusxa «Kutubxonai Ishoqiya»ga topshirilar edi. Kutubxonada «Turkiston viloyatining gazeti», «Turkestanskije vedomosti», «Tarjimon» gazetalarining hamda markaziy Rossiyada chiqadigan gazeta va jurnallarning boylamlari bo'lgan. Afsuski, bu kutubxonadagi ko'plab nodir nashrlar 1918-1920 yillar to'polonida, 1937 yil

qatag'on davrida yo'q qilindi, yoqildi, daryoga oqiziddi, erga ko'mildi. Isxoqxon Ibrat jahon ilmi va madaniyati tomonidan yaratilgan har qanday ilg'or yangilikni bajonidil qabul qildi. Bu yangiliklarni millat hayotiga tatbiq etishga intildi. U otasidan qolgan uch tanob erda xalq uchun bog' yaratdi. Favvora qurdirib, 150 tup archadan xiyobon barpo etdi, rus va Yevropa manzarali daraxtlarini o'tqazdi. Yevropa tipida imorat qurdirib, arkiga «Xush kelibsiz Ishoqiya bog'iga» deb yozib qo'ydi. Bu bog'ni qishloq aholisi hozir ham «Ishoqiya bog'i», «Gulbog'» deb ataydi.

Isxoqxon gullarni behuda uzmaslikka, tartib saqlashga chaqiruvchi didaktik she'riy misralar bitilgan afishalar bilan bog'ni bezatdi:

Uzmagil behuda gul, bog'bondin andisha qil,

Ori, ori gul uzarsan, xoridin andisha qil.

Kimki keldi bu chamanga, to gul uzmay qo'ymadi,

Lek har vaqt gul uzarsan, xalq xushini pesha qil.

Bu afishada ham Ibrat xalqni ma'rifatli bo'lishga chorlamoqda. Ibratning ilg'or ilm-fan, madaniyat yangiliklarini o'z xalqiga targ'ib qilishi, bid'atlarga qarshi kurash olib borishi, albatta, ba'zi bir mutaassiblarga yoqmadi, ularning g'azabini oshirdi. Natijada ular shoirga nisbatan turli-tuman bo'hton toshlarini yog'dirdilar, uni «Ishoq kofir» deb e'lon qildilar. Ular bu bilan cheklanib qolmadilar. Ibrat ochgan «usuli savtiya» maktabini «kofirlar maktabi» deb ta'qib qildilar. U qurdirgan hammomni «kufr» deb, xalqning bu hammomga borishini man' etdilar. Bunday ta'qiblar faqat Isxoqxongagina emas, ilg'or pedagog-ma'rifatparvarlar Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Muhammadsharif So'fizoda, Saidahmad Siddiqiy Ajziy va boshqalarga nisbatan ham bo'ldi. Ular ochgan ilg'or maktablarning yopilishi, ularning tazyiq ostiga olinishi yoki o'z vatanlaridan badarg'a qilinishlari fikrimiz dalili bo'la oladi.

Isxoqxon Ibrat har qanday og'ir sharoitda ham o'z ma'rifatparvarlik faoliyatini davom ettirdi. Zamondoshi Ibrohim Davron guvohlik berganidek,

Isxoqxon aqli komil inson sifatida «...dunyoning sonsiz mehnat va anduhlarindin va guruhi kajraftor ta'nalarindin bir zarra qadar o'lsa-da, maluliyat hosil etmadi»³³.

Isxoqxon Ibrat oktyabr to'ntarishiga qadar va undan keyin 20 yildan ortiq To'raqo'rg'on va Xonobod qishloqlarida qozi lavozimida ishladi. Uning qozilyk faoliya-ti, qozi sifatida amalga oshirgan ishlari haqida anchagina ma'lumotlar mavjud. U boshqa qozilardan farqli ravishda, xalq manfaatlarini ko'zlab, adolat bilan ish olib bordi. Boshqa qozilar kabi xalqni talash, poraxo'rlik, rishvat bilan shug'ullanmadi. Isxoqxon Ibratning qator publitsistik maqolalari mavjud tuzum illatlarini, mahalliy mansabdorlarqozilar, mingboshilar, ellikboshilarni fosh qilishga qaratilgan. 1910 yili o'lkada qozilik mansabiga saylovlar o'tkaziladi. «Turkiston viloyatining gazet»i bu jarayon haqidagi chiqishlarga keng o'rin berdi. Isxoqxon Ibrat ham bu mavzuda turkum maqola va she'rlari bilan mat-buotda qatnashdi. Bu mavzuda yozilgan maqolalarida, mahalliy mansablarga saylov o'tkazishdagi nayranglar ayov-siz fosh etilgan. Isxoqxon o'g'rilik, poraxo'rlik, zo'ravonlik bilan shug'ullanuvchi iflos odamlarning qozi yoki mingboshi, ellikboshi bo'lib olishlariga keng yo'l ochib bergan chor hukumati qonun-qoidalaridan, tartiblaridan, «polojeniya»laridan qattiq norozi ekanligini dadil ifodalaydi. Xalq taqdirini yomon, qabih odamlarga topshirib qo'yishlaridan afsuslanadi: «Polojeniyada 223-bobida zikr qilingandurki, e'tibori bor, etti kundan ziyoda hibs bo'lmagan, o'ttuz so'mdan ziyoda ishtraf to'lamagan, yoshi yigirma beshdan past emas odam (qozi) bo'lar ekan. Olim yo omi, ahmoq yo dono kishi, yo shariat biladurgan va yoki nizom biladurgan demagan... Ko'rasiz, kimlarning qo'llariga bu katta shariat hukmini topshiradurlar. Fikr andisha qiladurgan kishi yo'q. Andisha qiladurgan odamni odam ham hisob qilmaydilar... Polojeniya bobig'a muvofiq ellikboshi degan kimgaki shar ko'b xushsa ani yozar ekan. Na qilsunlar, bu xil kilsalar polojeniyaga muvofiq. Polojeniyada shariat biladurgan mulladan degan emas ekan. Ularga kim va nima bo'lishi ham darkor emas ekan. Befikr o'tsang, ey do'st, muhtoji non o'lursan»³⁴.

³³ «Туркистон вилоятининг газети», 1908, 56-сон.

³⁴ «Туркистон вилоятининг газети», 1910 йил 21 март, 22-сон.

CHor hukumati adresiga, uning qonun-qoidalariga qarata aytilgan bu kinoya, achchiq soʻzlar hukumat nashri boʻlmish «Turkiston viloyatining gazetisi» tahririyati xodimlariga qattiq tekkan boʻlishi tabiiy. SHuning uchun ham gazeta idorasi maqola muallifiga eʼtiroz bildiradi: «Polojeniyada xalq orasida obroʻ va eʼtibori bor odam boʻlsun, degan, albatta. Mingboshilikka mingboshi boʻlmoqlikka munosib obroʻsi boʻlib va qozilikka qozi boʻlmoqqa layoqat va munosiblik obroʻ boʻlmoq lozimdir. Polojeniyani mulohaza qilmoq kerakIdora»³⁵.

Isxoqxon Ibrat tuzum illatlarini keskin fosh etuv-chi hamda maʼrifatparvarlikka oid maqolalari bilan birga qator ilmiy-tarixiy, lingvistik mavzularda ham maqolalar yozdi. Bu oʻrinda uning «Fargʻona viloyatidagi qadimiy Axxi shahrining tarixi» turkum maqolalaridiqqatga sazovordir³⁶.

1913 yil iyun-iyul oylarida Toshkent arxeologiya jamiyati Axxi shahri tarixiga bagʻishlangan ilmiy munozara uyushtiradi. Bu munozaraga Ishoqxon Ibrat ham taklif qilinadi. Munozarada Isxoqxon maʼruza qiladi. Munozara materiallari «Turkiston viloyatining gazetisi» sahifalarida muntazam berib boriladi. Bu munozara Ibrat maqolasi bilan boshlanadi. Maqola hajman salmoqli, faktik materiallarga boyligi bilan qimmatli. Isxoqxon Ibratning soʻnggi yillardagi hayoti ancha tahlikali oʻtdi. Birinchidan, keksalik, ikkinchidan, 1935 yildan eʼtiboran hamma lavozimlardan ozod qilingan, qarilik nafaqasi ham tayinlanmagan edi. Buning ustiga mahalliy hukumat maʼmuriyati unga ishonchsizlik bilan qarar, Ibrat tepasida ham dahshatli qatagʻon bulutlari quyuqlashib bormoqda edi. 1963 yili Isxoqxonning shogirdi Mulla Iskandar domla Abduvahob oʻgʻli shoirning qamalishi oldidagi ruhiyati haqida kuyunib gapirgan edi: «Minglab oʻzbek ziyolilarining yostigʻini quritgan Stalin qatagʻonining eng dahshatli yili1937 yilning ilk bahor kezlari «xalq dushmani» deb koʻplar qamalgan, gazeta va jurnallarda Fitrat, Abdulla Qodiriy, CHoʻlpon, Elbek va boshqa yozuvchilarni «mashhur millatchilar», «aksilinqilobchilar», sovet hukumatiga qarshi qoʻporuvchilik ishlarini olib boruvchilar sifatida qoralovchi maqolalar ketma-ket

³⁵ «Туркистон вилоятининг газети», 1910 йил 21 март, 22-сон.

³⁶ «Туркистон вилоятининг газети», 1913 йил № 48, 52, 53, 55.

chiqib turgan, to‘ram (Isxoqxon Ibrat) ham «taq» etsa, eshikka qarab turgan vaqtlar. Ular bir kuni meni uylariga chakirib qoldilar. Qiyofalari ancha tashvishli. Keling, Mulla Iskandar. Salom-alikdan keyin meni mashhur kutubxonalariga olib kirdilar.

— Qarang, shuncha kitob. Bularning qanchasi 1919-1920 yillarda nes-nobud bo‘ldi. Mana endi yana notinchlik. Bu kitoblardan qanchasi kecha kuni qamalgan, qanchasi «xalq dushmani», «aksilinqilobchi» deb badnom qilinayotgan yozuvchilarning asarlari. Bularni qanday qilib yo‘q qilish mumkin? Axir, bular xalqning bebaho mulki-ku To‘ramning ovozi ancha siniqqan edi.

— Mana, men har ehtimolga qarshi yuzga yaqin nozikroq kitoblarni ajratib qo‘ydim, bularni Siz mehmonxonaning orqasiga qo‘shsinch orasiga nobud bo‘lmaydigan qilib terib, devorni yana suvab qo‘yasiz. Men bu kitoblarni ko‘zdan kechirdim: To‘ram, mana bu kitoblar Ismoilbek G‘aspralining «Xo‘jai sibyon», Munavvarqorining «Adibi avval», Behbudxo‘janing «Kitobat ul-atfol» alifbolari. Axir, ular vafot etganlariga bir qancha yillar bo‘ldi, qolaversa, bu kitoblar yosh bolalar uchun yozilgan. Azizim Mulla Iskandar, bolsheviklarning maqsadi faqat ularni jisman yo‘q qilish emas, balki ularni hatto farzandlarimiz xotirasidan ham sidirib tashlashdir. Mabodo, G‘aspralilar, Behbudiylar shu kunlarga etib kelganlarida edi, bolsheviklar birinchi navbatda ularni otar edilar. Men, to‘ram aytganlaridek, qo‘shsinchning guvalalarini tushirib, avval 2-3 qator quruq pishiq g‘isht terdim va uning ustiga kitoblarni taxladim. Bu voqeadan 1-2 oy o‘tgach, to‘ramni, kutubxonadagi bor-yo‘q kitoblarini bir mashinaga bosib olib ketishdi. Haqiqatan ham to‘ram avliyo odam edilar. Mana, o‘sha voqeaga ham 27 yil bo‘ldi, dorulomon vaqtlar keldi. Endi, o‘sha xazinani ochamiz».

SHu tariqa o‘sha kitoblar kelajak avlod uchun saqlab qolindi. Taajjublanarli joyi shundaki, birorta kitob oz bo‘lsa ham shikastlanmagan edi. To‘g‘ri, sahifalar sarg‘ayib ketgan, muqovalari bir oz ishdan chiqqan. YUqorida tilga olingan kitoblardan tashqari, Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», CHo‘lponning «Kecha va kunduz» romanlari, Fitratning «Adabiyot qoidolari», Elbekning «Go‘zal yozg‘ichlar», «Adabiyot parchalari», Abdulla Avloniyning

«Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», Fozilbek Otabek o'g'lining «Dukchi eshon voqeasi», Ziyo Sayidning «O'zbek vaqtli matbuoti tarixidan materiallar» va hoka-zo kitoblari ham bor edi. 1937 yil. Qatag'on Vatanimizning fozil kishilari qatorida Isxoqxon Ibratni ham ajdahoday o'z komiga tortdi. 75 yoshni qoralagan keksha shoir va bir «qora mashina» to'la kitob Andijon turmasiga olib ketildi. Isxoqxon Ibrat Stalin turmasida bir necha oy yotib, hayot bilan vidolashdi. Butun umrini xalqining ma'rifati, istiqloli uchun baxsh etgan 75 yoshli nuroniy shoir qamoqning ham jismoniy, ham ruhiy azoblariga bardosh bera olmadi.

Buni keltirib o'tishimizning sababi Ibratning umrining oxirigacha xalqni ma'rifatparvar qili g'amda yonganligini ko'rsatish edi. Mustaqillik sharofati bilan Isxoqxon to'ra Ibrat merosini ilmiy o'rganish va ommalashtirish imkoniyati kengaydi.

II.1 Isxoqxon Ibratning «Tarix-i Farg'ona» asari va undagi voqealar bayoni

Isxoqxonning «Tarix-i Farg'ona» qo'lyozma asari katta tarixiy-madaniy ahamiyat kasb etadi va o'zbek xalqining qimmatli yozma yodgorliklaridan hisoblanadi.

Tarixchi olimlarning fikricha, Isxoqxon Ibrat ushbu asarini qayta ishlash niyatida boʻlib, uni nashr etmagan. SHuning uchun ham asarda ayrim kamchilik va nuqsonlar uchraydi.

Masalan, «Hoʻqand» shahri kelib chiqishini «Xoʻq-qand» soʻzlaridan tuzilgan deb, uning binosini 1709 yilgi voqeaga bogʻlaydi. Vaholanki «Qoʻqon» shahri X asrlarda ham shu nom bilan mashhur boʻlgan. Maʼnosi esa «yaxshi», «latif» soʻzlariga toʻgʻri keladi¹.

Asarda Qoʻqon xonligining ayrim tarixlari hususida ham yanglish aytilgan fikrlar bor. Masalan, Muhammad Alixon 1822—1842 yillarda xokimlik qilgan emas, balki 1822—1841 yillarda xon boʻlgan. U 1841 yil noyabrida taxtdan voz kechadi. Qoʻqon taxtiga ukasi Mahmud oʻtiradi. By haqda ishoxon hech narsa yozmaydi.

1865 yili Tashkent ostonalarida Mulla Alimqulning yarador boʻlib vafot etishini ham fikrimcha, notoʻgʻri bayon etgan va shu kabi ayrim, uncha ahamiyatga ega boʻlmagan kamchiliklar uchraydi. Ammo ular asarning qiymatini tushirmaydi.

«Tarixi Fargʻona» asarida asosan Qoʻqon xonligining siyosiy tarixi yoritilgan. Bundan tashqari Qoʻqon xonlarining siyosiy faoliyatiga va xonlikdagi shaharlar tarixiga ham alohida eʼtibor berilgan.

Masalan, Andijon shahri toʻgʻrisida quyidagicha maʼlumot berilgan. Bu Andijon avvalda Andigon boʻlib, arabiyga olganda Andijon boʻlur, chunonchi, «kofi» forsiy arabda «jim» oʻqilur. Mana, farangi lafzi arabda afranjiy, bangni banj. Kofi forsiy arabda «j» boʻlib, Andigon arab lafzlarida Andijon boʻlgan boʻlsa kerak. Ozarbosgon arabda Ojarbayjon yoziladur va oʻqiladur. SHunga oʻxshash Andijon lafzi asli Andigon boʻlsa kerak. Bu forsistondan qoʻshilgandur, chunonchip, bandigon yoki mardigon degandek. Forsiyda gonlar oʻrnida mardlar yoki ozodagon ozodalar degan soʻzdek. Andigon andalar degan soʻz. Anda turklar urugʻini oʻzbeklarini aytur. Bul forsiylar tarafidan aytulgan boʻlub, asli Andijon forsiylar,

¹ Bobobekov H.I. *Qoʻqon tarixi*. T., «Fan», 1996, 165-b.

ya'ni arablar qo'lig'a o'tmasdan avval ham bor edi, chunonchi, tarixi "Qutadg'u bilik"da yozibdurki O'g'uzxonni Hindistong'a yurganni zikrida aytur.

Namangon shahri bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan. Namongon yangilik jihatidanmu yoki biz ahli islom diniy kitoblarga ahamiyat berub, tarixlarga ahamiyat yo'qligi sababmu, bu Namongong'a hech kim ravshan tarix qilmagan ekan. Bu sababdan bir itob ko'rilmaydur. Qariyalar og'zidan og'iz eshitilub, haddi tovaturga etib, yonida bo'lak qilu qol bo'lmay, hammani masmu'i bo'lgan ravshan so'zlar ilan ado qilinadur. CHunonchi, bu Namongon asli namongon emasdur. Forsiy lafzi birla namakon-namak qondur. Muni ma'nisi shul ekanki, buni CHig'atoy tilida asli gon yo'q ekan, bu shevai forsidir.

Qo'qon shahri Farg'onada bir katta shahar ulub, islom podsholarini maqqarri saltanati uchun ibtido Qo'qondan bayon qilinodur. Vajhi tasmiya budurki, xavoqini Xo'janddan ul shahar bo'lmagan vaqtda Qo'qon o'rni to'g'ay va qamushzor erlar bo'lub, ul vaqtda Hovak xojalari tojiklar so'rar ekanlar. Bul to'qaylarda har xil xuk va to'ng'izlar yurar ekan. Alar erlarni kavlab, har xil ovqat topib ekanlar, bu jihatdan tojik xojalari kelganda necha erlar kavlangan ekan, alar bu chuqurlar nima, kimlar kavlagan, deganlarida tojiki javob berib, "xuk kand" deganda, ya'ni to'ng'iz kavlagan deganda ul erni ismi "xuk kand" bo'lub, xuk kand etmoqda qiyin bo'lub, bizni turkida "qof" harfi qaviy uchun Qo'qon bo'lgan, forsiy "kof"ni turkiy "qof"ga badal qilganlar turkiylar lafzidur. Mana, endi, yana bir badal bo'ldi, ruscha aytmoqda "qof" yo'q "Kokand" bo'ldi. SHunga o'xshash har vaqtda har qabila lisonlari tabodul o'lub, shevalar o'zgargan, muni ba'zi Qo'qoniylar yaxshi ta'vil ila Qo'qon derlar, ya'ni fe'li-xo'yi qand degan emish.

Ibratning bu asari O'z.R. FA SHarqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida saqlanayotgan Inoyatxon To'raqo'rg'oniy qalami bilan ko'chirilgan nusxa asosida nashrga tayyorlangan.

Qo'qon shahri Farg'onada bir katta shahar bo'lib, xonliknig poydevori

Qo'qondan boshlanadi. Qo'qonda o'sha paytda hokimyat CHodak xojalari-tojiklar qo'lida edi.

Qo‘qon xonlarining ibtidosi Oltin beshik deb «Ta’rix-i SHohruxiy»da bayon qiladur. Ul vaqtda Qo‘qon yo‘q, atrofda Tirg‘ov degan va CHinkat degan va Saroy qishloqlari bo‘lub, Tirg‘ovda bir mudabbir kishi bu xalqning xonzodasi bo‘lmasa inqiyod qilmasliklarini bilib, o‘shal vaqtda Andijon xonlaridan Boburxon ibn Umarshayxning Andijondan qochib ketib turgan vaqti ekan. Ul kishi o‘z oilasidan bir bachasi va bir marziai g‘abiyni necha xil oltun va kumushlar bilan tazyin qilib, aning beshiklarini kimxob va atlaslarga o‘rab, Boburxonning qochub o‘tub turgon erig‘a maxfiy tashlab, anga posbonlar qo‘yub, tofub olmoq uchun bo‘lak xalqlarning muoyana bilmaki lozim. Necha kundan so‘ng uch qishloqdin suv ochmoq uchun odamlar chiqqanda hammalari beshikni ko‘rub, birdan talash qilib, oxiri ichlaridan birisi chek qilmoq bo‘lganda uch taqsim qilib, chek solib, beshik saroyliklarga, yovug‘lari chinkatliklarga, bola tirg‘ovga tushganda, har qaysilari o‘z cheklariga tushgan nimarsalarni olib ketib, bolani tirg‘ovaliklar tarbiyat qilib, aning otini Oltun beshik deb, andin necha qarn o‘tub avvali to‘qquz yuz o‘n to‘qqizinchi hijriydan Oltun beshikdan SHohruxxon o‘rtasi ikki yuz yildan ziyodaroq o‘tub, o‘n ato bilan bir ming bir yuz yigirmanchi sanasi SHohruxxon julus etib, mufassal yozilib kelgan ta’rixlari ham bor edi. Taxtgohlari Qo‘qon shahri bo‘lub, mazkur nasldan yigirma sakkiz zot taxtga o‘lturub, SHahrixondan yuqorisi biy isminda, andin quyisi xon ismini olmishdurlar. Bularning oxiri Xudoyorxon o‘lub, ani aqabinda bir-ikki zoti besabot xon ismini ko‘torub, 1292-nchi sana Qo‘qon shahri Rusiya davlatiga o‘tgandan so‘ng biri ma’zul va bir necha kundan so‘ng biri maqtul 1293-nchi sanasinda xon ismi Farg‘onadan ma’dum va davlatlari noma’lum o‘lub, jam’i hukumatlari uch yuz etmish to‘rt yilga etkandur. Bu Oltun beshikning xalqg‘a xonzoda ekanin ravshan qilmoqda necha ilova so‘zlar qo‘shulub, bolaning boshida bulut soya qilgan ekan, kiyik emizub turgan ekan va qush soya solgan ekan, deb xalqning qulog‘ig‘a o‘rnatub, to angacha yigit bo‘lub, hurmati va ehsoni ziyoda bo‘lub, xushaxloq va xushmuruvvat bo‘lsa ham Tirg‘ova qishlog‘idan bo‘lak xalq inqiyod qilmay, har qaysi jamoada bir biy bo‘lub kelsa ham, Oltun beshikning biylik‘i shuhratliroq bo‘lub, mundan olti avlod bu suratda o‘tub, ettinchi avlodiga kelganda bul kishi boniyyi Qo‘qon bo‘lub, SHahmastbiy

ismini xon laqabiga chiqorub, nihoyatda so‘zi nufuzli bo‘lub, xon ismini rivojlatib, SHohruxxon deb shuhrat tofgan ekan. Mundin muqaddam ixtilof etsalar ham SHohruxxon asrida xonlik shuhrati butun bo‘lub, Qo‘qon poytaxt o‘lub, o‘zidan hazrati Odamg‘acha nasabini isbot qilub, muassisi saltanat bo‘lub, ajdodi xavoqini Qo‘qon katta muaassai tibyon bo‘lgan ekan.

SHohruxxon ming bir yuz yigirmada taxtga o‘lturub, komil o‘n ikki yil podshohlik qilib, o‘n uchinchi yili vafot etgan.

Norbo‘taxon ibn Abdurahmonxon ibn Abdulkarimxon ibn Norbo‘taxon taxtga julus etdi. O‘n to‘rt yoshinda o‘tuz olti yil hukumat surub, 1213 yilda vafot etdi. Farg‘ona xonlari ichinda bu zot uzoq davlat ko‘rub, bul kishidan ko‘b saltanat surgan kishi yo‘q. Bu kishini Borbo‘tavallomiy der ekanlar. Vallomiy «valiyi ummiy»dan bo‘lur, ya’ni podshohi omi (ya’ni butun omma hukmdori) degan so‘z. Bu vallomiydan Olimxon va Umarxon va bir xotundan Rustambek nominda o‘g‘ullari bo‘lub va Hoji nominda bir birodari qolibdur. Bu Hojibek SHeralixonning atosi Xudoyorxonning bobosidur. Birodari Norbo‘taxon ila arolarinda muddati madid muxolafat paydo o‘lub, Norbo‘taxon vafotidan so‘ng mazkur uch o‘g‘ul va Hojibek bu to‘rtovlarining bir-birini xon qilmoqda aholiyi Farg‘ona ixtilofda qolub, har toifa birini xohdab, oqibat jamoiyyai mingiya g‘olib, bo‘laklar solib bo‘lub Olimxoni sohibqironni taxtga chiqordilar.

Bu Olimxonning laqabi Zolimxon edi. Buning amakisi Hojibekni qatl qilib, ko‘b zulmlar chiqargan ediki, g‘azabindan, zulmindan Zolimxon mashhur va ma’ruf, munkiri ahli tasavvuf edi. Ma’a mofiyhi o‘zini mutasharri’ bilib, ijroi shar’ iddaosila ko‘b zulmlar qilur ekan. CHunonchi, bul jumladan o‘zining qo‘l bergan pirini darrag‘a yotquzub edi. Uning zamonida eshon ismi yo‘q bo‘ladi. Bul xil zulmlar ne, inisi Rustambekni o‘ldurub, sarkardalardin qancha o‘ldurub, oxiri bu zulmlarining mukofotiga umarolaridin bo‘lub, o‘g‘li SHohruxxon ilan har ikkisini biyobonda o‘ldurub, jasadni Xo‘qand olib kelub, dafn qilgan ekanlar. Mustaqil hukumati o‘n yil o‘lub, muzohamat va munozaati ilan o‘n ikki yilg‘a etkan ekan. Bu tarzda olamdin ketgan ekan.

Umarxonning julusi Olimxondan, ya'ni qatlindin muqaddam bo'lib, Olimxon favtidan keyin ikkinchi daf'a xon ko'tarilib, ulamoyi asr ittifoq etgan ekanlar. Umarxon a'dal ul azmon, a'lam ul-aqron fazl jihatidan baniyi SHohruxning jumlasidan foiq, shoiri fashi bayon va balig'i ayon va suxansanji ovon, forsiy va turkiyda behamto o'lib, ahli balog'atlar ba'zi she'rlarini kutubi ma'oniya irod etgan ekanlar va manfaati omma uchun musora'at va ahkomi shari'atda bazlu mu'ovarat husni tadbirlik va siyosatga sa'yi va mubodaratlik bir xoni nomdor va bir podshohi komkor edi. Ahli kamol komil muhabbati ila va ahli hunar tamomi muvaddati ila o'lib, ayyomi hangomida Buxoro va Xiva va Xorazm xonlaridan va Hindiston va Kurdiston kabi mamoliki ba'idadan ahli fazllar kelib, xizmatinda bo'lgan ekanlar va imtihon etgan ekanlar. Ul asrda shoirlik rivojda bo'lub, shu'arolar ko'paygan ekanlar. Bulardan Xotif, Mashrab, Fitrat, Adoiy, Akmalxon to'ra, Namangandan Mavlono Fazliy va shoiralardan ham necha adad fozila xotunlar bor ekan. Bularning ash'orlari «Majma't ush-shu'aro»larida masturdur.

Umarxon vafotindan so'ng Muhammad Alixon o'g'li o'n besh yoshlarida taxtga julus etdi. Xalq muni sifati madh ilan Ma'dalixon deb, ya'ni manbai adlu adolat deb zikr kilur erdilar. Bul vaqtda Jahongirxo'ja g'alabasida bul kishi ham Koshg'arg'a Xitoy ilan g'azot qilmoq bo'lub borub, Gulbog' degan mavze'da Xitoy ilan muhoraba qilib, g'oziylik laqabiga sodiq bo'lubdurki, Xo'qand xonlaridan mundan bo'lak hech kishi kuffor ilan muhoraba qilmay, g'oziylik laqabiga noil o'lmag'on ekan. Muhammad Alixon umrini ortuq joriyalar va mahramlar, o'yin-kulgi ilan kechurub, havoyu havasga naqdini sarf etadi. Mushori ilayh Muhammad Alixon Xo'qand ila Buxoro o'rtasida Lashg'ar nom qal'a xususida Buxoro amiri Nasrulloh bahodir ila o'rtalarida burudat tushub, amirbunga bir go'shmol bermak bo'lub, Muhammad Alixon atosining mankuhasini oldi, balki haromni halol dedi, kofir bo'ldi, necha-necha bid'atlarni joriy qildi deb, ta'dib qilmoqg'a Xo'qandga kelmoqda edi. Muhammad Alixon andan qochib, O'sh tarafinda tog'ga ketib, har kecha yurub, tong otguncha yurub, ertasi ko'rsalarki bir farsaxdan ortuq yurmagon ekanlar. Amir darhol qatlg'a hukm qilgan. Muhammad Alixon Muhammad Amin degan murohiq o'g'li va zavjasi va oyimini va yaqin

joriylarinihammasini so'ydurub, avvalda Muhammad Alixonni so'yib, andin so'ng Muhammad Amin degan o'g'lini so'yganda, murohiq, balog'atga etmagan xonzodaga anosi betoqat bo'lub, bunga qarab, anosiga vidolashub, ohu fig'onda turganda, mazluma onasi so'yiladurgon erga borub, bir ko'zi o'g'lida va bir ko'zi amirni tarafiga haqorat Muhammad Alixon ikki yuz o'ttuz ettida taxtga o'lturub, yigirma bir yil podshohlik qilib, 1258 hijriyda maqtul bo'lgan ekan.

Murodxonning otasi Olimxon qatlidan so'ng Umarxondan qochub, Buxoroga borgan edi. SHeralixonning muzandabligini eshitub, amirni ishorasi ilan maxfiy Xo'qandga kelgan edi. Inoq vazirlar buni ilan ittifoq qilib, SHeralixonni shahid qildilar, bilofasl munga bay'at qildilar. Bu asnoda Musulmonquli cho'loq qipchoq, qirg'iz ilan SHeralixonni xon qilgan edi. Bul holda Xudoyorxon ilan birga edi, bu voqeani eshitib asokiri azim ilan Xo'qandga kirdi. Kirgan hamon Murodxong'a bay'at etdi. «Zamon-zamoni Murod» deb munodo qildurdi. Firib ilan barchani tashvishdan chiqorub, forig' etub turub, ikki kundan keyin Murodxonni o'ldurdi, o'rnig'a Xudoyorxonni xon qildi.

Buxoro xonligiga tobe Fargona vodiysida XVIII asr boshlarida tashkil topgan davlat. XVIII asrda Qo'qon xonligi faqatgina Fargona vodiysini o'z ichiga olgan bo'lib, bu davlat XIX asr boshlariga kelib Toshkent vohasi, hozirgi Qirgiziston Respublikasi hududlari, Janubiy Qozogiston va SHimoliy Tojikiston hududlarini o'z ichiga oldi. XIX asr 60 yillarida esa SHarqiy Turkistondagi Ettishahar davlatini ham o'z tarkibiga kiritgan yirik davlatga aylandi. Qo'qon xonligi 1876 yil chor Rossiyasi istilochilari tomonidan tugatildi va uning o'rnida tashkil etilgan Fargona viloyati Turkiston general-gubernatorligiga qo'shib olindi.

Ashtarxoniy Subhonqulixon vafotidan so'ng Buxoro taxtiga o'tirgan Ubaydullaxon hukmronligi (1702-1712) davrida xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat chigallashib markaziy hokimiyat ancha zaiflashdi. Bunday siyosiy vaziyatdan foydalangan Fargona vodiysi Buxorodan ajralib chiqishga harakat qildi. Birinchi bo'lib CHodak mavzesidagi xojalar bosh ko'tarib chiqishdi va o'z mulklarini mustaqil deb e'lon qilishdi. Ularning ixtiyorida Targova, Pillaxon,

To'qaytepa, Parnoq, Tepaqo'rgon va Qaynar kabi mulklar bor bo'lib, bu voqea 1709 yil sodir bo'lgan edi.

SHu vaqtda ming urugi oqsoqollari Ubaydullaxon II ning minglarga nisbatan tazyiqni kuchaytirib yuborganiga qarshi hamda o'z mustaqil davlatlarini barpo qilishga intilib, o'z faoliyatlarini kuchaytiradilar. 1709-1710 yillarda ular alohida beklik tuzgan CHodak xojalarining hokimiyatini agdarib tashlaydilar va o'z hokimiyatlarini o'rnatadilar. SHu tariqa 1710 yilda SHohruxbiy (1710-1721) boshchiligidagi minglar urugi Fargona vodiysida o'z davlatlariga asos soladilar. Dastlabki vaqtda bu davlat tarkibiga Qo'qon, Namangan, Margilon, Qonibodom, Isfara kabi hududlar kirgan bo'lsa, SHohruxbiyning vorisi Muhammad Abdurahimbiy hukmronligi yillarida (1721-1733) davlat hududlari ancha kengaydi. U Andijon va Xo'jandda o'z hukmronligini o'rnatadi. O'ratepani qo'lga kiritadi. Qisqa vaqt Samarqand va Kattaqo'rgon shaharlarini egallab, SHahrisabzga ham tahdid soladi. Abdurahimbiy qo'qon qishlogi yaqinida katta shahar qurdira boshlaydi. Dastlabki vaqtlarda bu shahar «Qal'ai Rahimbiy» deb atala boshlagan. U qattiq kasallanib, 33 yoshida Xo'jandda vafot etgach, undan Erdonabek ismli o'gil uch qiz qolgan bo'lishiga qaramay, taxtga uning ukasi Abdukarimbiy o'tiradi(1733-1751). Abdukarimbiy yangi shahar qurilishini tugallab, poytaxtni Tepaqo'rgondan Qo'qonga ko'chirib keltiradi va Qo'qon shahri davlatining poytaxtiga aylanadi hamda davlat ham endi Qo'qon xonligi degan nom oladi. (SHaharning Qatagon, Margilon, Toshkand, Haydarbek kabi darvozalari bo'lgan).

Abdukarimbiyning hukmronligi yillarida markaziy davlat hokimiyati ancha mustahkamlanadi va xon tomonidan halqning farovonligiga ko'p e'tibor berildi. 1745-46 yillarda Fargona vodiysiga qalmoqlar hujumi sodir bo'ldi va qalmoqlar O'sh, Andijon, Margilon va boshqa joylarni egallab oldilar. Qo'qon shahri qamal qilib turilgan bir vaqtda O'ratepa hokimi Fozilbek yordamga etib keladi va qalmoqlar bu erdan haydab chiqariladi va bosib olgan erlari yana qaytarib olinadi. Qalmoqlar hujumi mamlakat iqtisodiy hayotiga ancha katta zarar etkazadi.

Abulkarimbiy 40 yoshida vafot etgach, bir qancha muddat Qo'qon xonligi taxti qo'lidan qo'lga o'tib turadi. Abulkarimbiydan so'ng taxtga o'tirgan o'gli

Abdurahmonbiy olti oygina taxtni boshqaradi va taxtdan tushirilib, Margilonga hokim etib tayinlanadi. (1751)

Taxtni Erdonabiy egallaydi (1751-1753). U o'zining dastlabki qisqa vaqtlik hukmronligi yillarida xonlikni mustahkamlashga harakat qiladi va O'sh hamda O'zgandni bo'ysundiradi. Biroq Erdonabiy ham tez orada taxtdan tushiriladi va o'rniga Bobobek o'tkaziladi (1753-1754). Biroq qalmoqlar tomonidan taxtga chiqarilgan Bobobek 1754 yilda Beshariqda o'ldiriladi va o'rniga qaytadan Erdonabiy o'tkaziladi. Erdonabiyning keyingi hukmronligi yillarida siyosiy vaziyat ancha keskin bo'lib turadi (1755-1769) va oddiy mehnatkash aholining ahvoli birmuncha ogirlashdi.

Erdonabiy vafotidan so'ng taxtga SHohruxbiyning uchinchi o'gli SHodibiyning o'gli Sulaymonbek o'tkaziladi. Biroq u 1769 yilda bor yo'gi olti oygina hukmronlik qilib, fitnachilar tomonidan o'ldiriladi va taxtni Abdurahmonning o'gli Norbutabiy egalladi. Norbutabiy markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun ko'p harakat qiladi. Dastlab u o'zboshimchalikka intilgan beklarni markaziy hokimiyatga bo'ysundiradi. CHust va Namanganda ko'tarilgan isyon va galayonlarni bostirgach, u erlarda o'ziga sodiq kishilarni qoldiradi va Xo'jandni ham egallaydi. Hukmronligining oxirga yillarida Toshkentni bosib olishga ham intilgan Norbutabiy muvaffaqiyatsizlikka uchraydi va u yuborgan Xonxo'ja boshchiligidagi lashkar Toshkent yaqinida maglubiyatga uchraydi. Norbutabiy vafotidan so'ng taxtga uning o'gli Olimbiy o'tiradi (1798-1810). Olimxon hukmronligi yillarida Qo'qon xonligining siyosiy mavqei ancha oshdi. Olimbiy dastlab harbiy islohotlar o'tkazib, qo'shinni ancha kuchaytirdi. Harbiy yurishlar qilib, Angren vohasini, Toshkent, CHimkent va Turkistonni o'ziga bo'ysundirdi. Bu hududlarni qo'lga kiritgach, Qo'qon xonligi bevosita Rossiya bilan tashqi savdo aloqalari uchun yo'l ochildi. Qo'qon xonligi kuchayib borishi bilan uning siyosiy maqomi ham o'zgardi. Dastlabki vaqtlarda «biy» yoki «bek» unvonlarida davlatni boshqargan Qo'qon hukmdorlari 1805 yilda Olimxon tomonidan joriy etilgan «xon» unvoni bilan yuritiladigan bo'ldi. SHu vaqtdan boshlab Olimxon «xon» deb e'lon qilindi va davlat ham Qo'qon xonligi deb

yuritiladigan bo'ldi. Markaziy hokimiyatni kuchaytirishga bo'lgan intilishi yo'lida Olimxon bir qancha yirik amaldorlar va xon xonadoniga mansub kishilarni qatl qildirdi, xon hokimiyatning cheksizligini ta'minladi. Bu esa xondan norozi bo'lgan amaldorlar va beklarning Olimxondan noroziligi ortishiga olib keldi. Olimxonga «Zolimxon» degan laqab berildi. Olimxon o'z ukasi Rustambekni va bir qancha din peshvolarini o'ldirib yuborgach, undan norozi bo'lgan kishilarning soni yanada ortdi, manbalarda ta'kidlanishicha, bu odamlarga xonning ukasi Umarbek boshchilik qilgan.

1810 yilda Olimxon o'gli SHohruxxon bilan Toshkentga qaytayotgan vaqtda Oltiqush mavzesida andijonlik Qambarmirzo tomonidan otib o'ldiriladi va taxtni ukasi Umarbek egallaydi.

O'zini «amir» deb atagan Umarxon davlat tepasiga kelgach, mamlakatda ko'plab galayonlar va isyonlar avj oldi. CHimkent va Turkistonda galayonlar ko'tarildi. O'ratepa hokimi unga bo'ysunishdan bosh tortdi.

Ammo davlatni boshqarishda katta ta'sirga ega bo'lgan din peshvolari va harbiy sarkardalar bilan ittifoq bo'lib ish tutgan Umarxon bu galayonlarni bostirib, xonlik hududlarini bo'linib ketishdan saqlab qoldi.

1818 yilda Qo'qonda katta jome masjidi qurish haqida farmon berib, Umarxon din homiysi sifatida ham o'z mavqeini oshirib yubordi va «Amir ul-muslimin» unvonini ham qo'lga kiritdi va amalda diniy va dunyoviy hokimiyat egasi bo'lib qoldi. Amir Umarxon Toshkentga ham yurish qildi va uni egasi bo'lib qoldi. Amir Umarxon Toshkentga ham yurish qildi va uni egallab (1811). Lashkar qushbegini shaharga hokim etib tayinladi va Rajab qushbegini Turkistonga jo'natdi. Turkiston egallangach, unga SHayx Bedil dodxohni hokim etib tayinladi. Amir Haydarga qarshi Jizzax uchun olib borilgan kurashlar Umarxonga muvaffaqiyat keltirmadi. Umarxon davrida Qo'qon xonligida adabiyot va she'riyat ancha yuksaldi, iqtisodiy ahvol birmuncha yaxshilandi.

«Jannatmakon» nomini olgan Amir Umarxon 1822 yilda kasallanib vafot etdi va taxtni o'gli Muhammad Alixon egalladi. Madalixon davrida (1822-1842) Qo'qon xonligi iqtisodiy va siyosiy jihatdan ancha yuksaldi va bir qancha

hududlarni, jumladan, Dorboz, Qorategin, Qulob kabi joylarni qo'lga kiritdi. 1826-1831 yillarda Qashgarda xitoyliklarga qarshi kurash olib bordi va halq unga «g'oz» laqabini berdi.

Madalixon davrida Buxoro amirligi bilan ham tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turdi. Bu urushlarning hammasi mehnatkash halq zimmasiga yangi soliqlar solinishi va aholi turmushining ogirlashuviga olib keldi. Halq galayonlari kuchaydi. Hukmronligining so'nggi yillarida davlat ishlridan ko'ra ko'proq ayshu-ishratga berilib ketgan Madalixondan norozi bo'lgan kuchlar unga qarshi fitna tayyorlaydilar. Davlat boshqarishda katta tajribaga ega bo'lgan va xonning yaqin maslahatchisi Mingboshi haqqulining o'ldirilishi ularga yanada qo'l keldi. Fitnaga bosh qo'shgan Qozi Kalon Toshkent hokimi va boshqalar Madalini taxtdan agdarib tashlamoqchi bo'ldilar. Ular Buxoro amiri Nasrulloga elchi yuborib, o'z niyatlarini amalga oshirishda undan yordam so'radilar. 1842 yil aprelda katta qo'shin bilan Qo'qonga bosib kelgan Nasrullo shahar yaqinida joylashdi.

O'ziga qarshi norozolikning kuchayib borishidan havfsiragan Madalixon 1841 yil noyabr oyida ukasi Sulton Maxmud foydasiga taxtdan voz kechgan bo'lsada, sulh so'rab Nasrullo huzuriga elchi yuboradi. Biroq uning barcha takliflari rad etiladi va Madalixon oilasini va o'ziga sodiq ming kishini hamda xazinani olib, Namangan tomonga qochadi. Biroq ular Amir Nasrullo farmoni bilan tutib keltiriladi va Madalixon, uni onasi Nodirabegim, Sulton Maxmudxonlar qatl etiladi. Qo'qonda 12 kun turgan amir Nasrullo bu erda Ibrohim dodxohni qoldirib o'zi Buxoroga qaytadi.

Ibrohim dodxohning shahar aholisiga zulmni haddan oshirib yuborganligi bois, 3 oy o'tgach unga qarshi qo'zgon ko'tariladi va Ibrohim dodxoh va uning ukasi Isxoq Xo'jand orqali Buxoroga qochadi. Qo'zgonchilar tomonidan SHeralixon Qo'qon xoni deb e'lon qilinadi.

1842 yil kuzida Nasrullo Qo'qonni egallash maqsadida katta qo'shin bilan Qo'qonga keladi. Qo'qonliklar unga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatadilar va qamal cho'zilib ketadi. Bu orada esa Xiva xonligi lashkarlarining Buxoro amirligi

hududlariga hujum haqida habar keladi va Nasrullo qamalni to'xtatib ortga qaytishga majbur bo'ladi.

Qo'qonni himoya qilishda katta jonbozlik ko'rsatgan Musulmonqul qipchoq mingboshi unvoniga sazovor bo'ladi. Davlat boshqaruvida asta-sekin qipchoqlarning mavqei ortib boradi. 1845 yilgacha xonlikda bir oz tinchlik hukm suradi.

1845 yil yozida Murodbek SHeralini taxtdan tushirish maqsadida Buxoro amiri qo'shinlari yordamida Qo'qonga bostirib keladi. Musulmonqulning shaharda yo'qligi sababli Murodbek SHeralixonni o'ldirib, taxtni egallaydi va o'zini Buxoroning vassali deb e'lon qiladi. Bundan habar topgan Musulmonqul darhol qo'shin bilan keladi va bor-yo'gi 8 kun taxtda o'tiradi Murodbekni taxtdan tushirib, qatl qiladi. Taxtga SHeralixonning 13 yoshli o'gli Xudoyorxon o'tkaziladi va hokimiyat amalda Musulmonqul qipchoq qo'liga o'tib qoladi. Bu holat 1850 yilning oxirigacha davom etdi. Musulmonqulning cheksiz hokimiyat egasi bo'lib qolganligi va qipchoqlarning mavqei oshganidan norozi bo'lgan amaldorlar birlashib, Musulmonqulga qarshi kurashlarga tayyorlana boshladilar. 1852 yil xazinani talon-taroj qilishda ayblangan dasturxonchi va risolachi Toshkentga qochib ketganligi uchun 40 ming kishilik qo'shin bilan Toshkentga yurish muvaffaqiyatsiz tugadi.

1852 yilning iyun oyida Musulmonqul yana 30 ming kishilik qo'shin bilan Toshkentga yurish qiladi. Lekin shu vaqt Xudoyorxon CHirchiq bo'yida jang bo'layotgan vaqtda Toshkentlar tomonga o'tib ketadi. Musulmonqul tor-mor etiladi. Kuz oyilarida butun qipchoqlarga qarshi qirgin boshlanib ketadi. 1853 yil kuzida esa Musulmonqulning o'zi tutib olinadi va Qo'qonda dorga osiladi. Xudoyorxon o'z hokimiyatini mustahkamlaydi.

Bu vaqtda esa tashqi dushman Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligiga qarshi harbiy harakatlarni kuchaytira boshlagan edi.

II.2 Turkiston vaqtli matbuotida Ibratning ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy qarashlarini aks ettirilishi

Isxoqxon Ibrat 1913 yilning iyun-iyul oylarida Toshkentda bo‘ladi va arxeologiya jamiyati tomonidan uyushtirilgan Axsi shahrining tarixiga bag‘ishlangan munozarada qatnashadi. Munozara materiallari «Turkiston viloyatining gazetasi»da muntazam berib boriladi. Bu munozara Isxoqxon Ibrat maqolasi bilan boshlanadi. Uning maqolasi ushbu gazetaning 1913 yil 48, 52, 53, 55-sonlarida berilgan.

Farg‘ona oblastida qadimgi zamonlarda poytaxt bo‘lub turgan Axsi yoki Axsikent degan katta shahar bo‘lgan ekan. Bul kunlarda mazkur shaharning o‘rni va asorati yaxshi ma’lumdur. CHunonchi, Namangan uездig‘a tobe’ xuddi Namangan shahridin o‘n besh chaqirim masofada Axsi bo‘lustida daryo labida bir necha qishloqdin iboratdur. Bul xususda tavorix kitoblardin mazkur Axsiket xususida xabar olib, tavorix uchun biror risola tasnif qilmoq lozimdur, ya’ni ul shahar qaysi vaqtda ul martaba bino bo‘lgan, qaysi xon va beklar ul shaharda hukumat qilgan va fuqarolarningmaishati qayu tariqada bo‘lgan va ham qayu vaqtda nima sabablar ila ul shahar vayron va xarob bo‘lgan va nima uchun ul joyda hech kim turolmagan. Yiqilgan devor va imorat asorati er ostig‘a ko‘mulub qolgandurmu, deb. Bul muddao birla gazet o‘qug‘uvchi zotlardin iltimos qilamizki, har kimning qo‘lida har xil tarix kitob bo‘lub, ul kitoblarda Axsi shahri xususida xoh qisqa, xoh mufassal xabar bo‘lsa, biz gazet muallifig‘a yozib yuborib, bizni xursand qilsa, va lekin mazkur xabar bu tariqa yozilsa, chunonchi: «Axsiket Movarounnahrda Sayhunning sohil sharqisida bir qasaba erdi. Axsiket Movarounnahrda Farg‘ona doxilida bir qasaba o‘lub, Sayhun daryosining shimol tarafidag‘i qasabalarning biri Axsidur. Kitoblarda bitadurlar, chunkim Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg‘onada Andijondin so‘ngra mundin ulug‘roq qasaba yo‘qdur.

Andijondin g‘arb tarafida to‘qquz tosh yo‘ldur. Umar SHayx Mirzo muni poytaxt qildi. Bir- ikki martaba tashqariroqdin yana jarlar soldi. Farg‘onada muncha berk qo‘rg‘on yo‘qtur. Axsi qo‘rg‘oni baland, jar ustida voqe’ bo‘lubdur. Imoratlari ham jar yoqasida edi. Ushbu tarixda, ya’ni 899 hijriyda, dushanba kuni va ramazon oyiningto‘rtida Umar SHayx Mirzo jardin kabutar misllik uchub vafot

qildi. O'ttuz to'qqiz yashar erdi, valodati 860 da Samarqandda edi, Sulton Abu Said Mirzoning 4-o'g'li edi. Sulton Abu Said Sulton Mahmud Mirzo o'g'li, ul Mirzo Mironshoh o'g'li, Mirzo Mironshoh Amir Temur o'g'li. Umar SHayxni qabri alhol Axsidadur. Umar SHayx Mirzodin uch o'g'il, besh qiz qolib edi. O'g'lonlarining ulug'i men Zahiriddin Bobur edim. Mening onam Qutlug' Nigorxonim YUnusxon qizi edi», deb. Bu iboralar «Boburnoma»da xud Boburxon so'zlaridur. YAna «Boburnoma»ning 40 va 29-sahifalarida yoziladurkim «Bir-ikki kundan keyin Kandarlik dovoni ila Axsi va Andijong'a azimat qildim. Axsig'a etib, otamning mozorini tavof qildim. Axsidin namozi jum'ani vaqtida chiqib, Bandsolur yo'li ila Andijong'a kirdim», deb. «Ta'rix-i Rashidiy»da yozilganiga qaraganda, Axsi shahrining avval binosi mo'g'ul xonlari tarafidin bo'lub, 890-900-hijriy ta'rixida Amir Temur avlodlaridin Umar SHayx Mirzo va SHayboniyxon avlodlaridin Jonibekxonga Axsi shahri bir necha vaqt poytaxt bo'lub, bu shaharda hukmronlik qilgan ekanlar. O'shal asrlarda Axsi shahri g'oyatda obodonlikda ekan.

Ko'b zamonlar Koshg'ar viloyatida hukmronlik qilib, Abdullaxon Samarqand va Buxoro va Farg'onaga istilo qilgandin keyin Sulton Abu Saidxon ko'b askar ila Koshg'arg'a borib, tamom tavobioti Koshg'arni olib, 939 yilg'acha hukmronlik qiladur. Ta'rix eski Axsi manqibi risolai Hazrat Langar Bobo Azizdin shul tariqa yozilibdur: «Axsikentni avvali binosini Eron podshohi No'shiravoni odil bino qilgan ekan. 521-tarix milodiyda No'shiravon o'g'li Xurmuz podshoh Axsini necha vaqt poytaxt qilib, anda hukumat surub, so'ngra 1233 milodiyda Sirdaryo katta toshgan vaktida bir zilzila bo'lub, daryoning suvi Axsiningbiyoboniga chiqib ketgan ekan. Anda buzulub, xarob bo'lg'an ekan. Ammoki avvalgi obodligida imoratlari ikki-uch qabat xishtdin binolari bo'lub, shahar nihoyasi Kosong'acha borub, Koson ila Axsi o'rtasi qirq chaqirimlik yo'l hammasi imorat, bozor bo'lg'an ekan. Hattoki bir echki Axsi tomida yurmak bo'lsa, to Kosong'acha borur ekan. Tom ustidan yurub hammomlar, madrasalar, saroylar, er tagidan yuradurgon savqi erlari, ko'b taajjublik nimarsalari hozir ham ko'runub turadur. Hozirda Axsi ikki erda bo'lub, birini Eski Axsi, birini YAngi Axsi derlar.

YA'ni YAngi Axi Eski Axi buzilgandan so'ng qolgan odamlar daryodin qochib, Koson tarafida balandlik biyobong'a imoratlar qilib, ko'b qishloq bo'lganlar. Hozir YAngi Axsida o'n ikki qishloq, SHohand degan bozorlik, bir qishloqi oila bir bo'lushib bo'lgan. Ammo Eski Axi odamlari og'zidagi so'zlari ko'b ajib va g'arib so'z so'zlaydurlar. Alarni olmay, manoqibdan yozildi. Eski Axsini buzulgan tarixi 1030 milodiyda bo'lgan ekan. Andin buyon mazkur Axsini hech podshohlardan yoki fuqarolardan obod qilgani yo'q. Dehqonlar va o'tunchilar har xil nimarsa topub olurlar, chunonchi, mis asboblari va shishalar, har xil toshlar chiqadur, ko'b erlari daryoga ketgandur. Alholda ham imoratlarga aksar xishtlarni andin olurlar».

Keltirilgan maqola Farg'onaning qadimiyligi masalasiga o'sha davrlarda ham qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ushbu 7-iyulda Namangan otash aroba yo'li bitib, uni ochilganligiga shukrona bayrami bo'lubdur. SHul kuni soat birga Xo'qand istansiyasiga boyonlardan yig'ilib, Namanganga boradurgon poezni ko'b ziynatlar berib, ul joyda duo va fotihalar qilib, ul yo'lningbinosiga sabab bo'lgan odamlarni ham haqlariga duo qilib bo'lub, mazkur yasatulganni olib kelib siyr tortib qo'yan lentani kesib, aning ustiga «Namangang'a salom!» deb yozgan yozuvni vokzolg'a ro'baro' qilib, ul poezga Namangang'a shukrona bayramga boradurgon odamlar tushub, alohida chiroylik qilgan, ustiga «YAxshi soatda!» deb yozgan darvozadin poez o'tib, Namangong'a qarab jo'nab, o'shal asnoda fotograflar va ham alohida chiqarilgan sinimotograf o'shal erda hozir bo'lub, tasvirlarini olib turibdur. Ul poez CHust istansiyaga rasmi yurishda yurub borib, andin keyin Sirdaryog'a ko'b xarajatlar bilan bino qilgan yog'och ko'frikdin o'tub, ul yo'llarda ko'b joylarda ko'b chuqur joylarga qo'frik solib, xususan, ikki chuqurlik joyga biri sakkiz sarjin, biri o'n ikki sarjin joyga ko'frik solib, bul ikki ko'frik ul yo'lni tezlik bilan bitmaslikga sabab bo'lubdur. Mazkur poez CHust va To'raqo'rg'on istansiyalariga kelganda, qishloq fuqarolari taraflarindin mutasaddilar qarshi chiqib, non-tuz ushlab, CHust mutasaddilari Farg'ona oblasti janob voenny gubernatorini noiblarindin hukumatdordardan to'suqqa ham otash arobani tezlik birlan kelmog'iga ionat ko'rsatmoqlikni iltimos qilibdurlar va ham o'z taraflaridin

beoqcha ul otash aroba keraklik erlarni bermoqlikg'a va'da qilibdurlar. Poez Namangang'a kelgandin keyin istansag'a nihoyatda ko'bsartiyalar yig'ilib, atrofdin, qishloqlardin umrida otash arobani ko'rmagan odamlar kelib, ul otash arobani birinchi marotaba ko'rub hayron qolib, poez kelayotgan vaqtda oq sallalik odamlar adadi nihoyatda ko'b 25000—30000 g'a etibdur. Namangang'a etib duo va fotiha qila boshlaganda, ul ko'b hujum bo'lgan sartiylarni politsiyalar mashaqqatlar birlan tarqatib, chekkalarg'a chiqoribdurlar. Poez to'xtagan joyda Namangan tarafdin ko'b ziynatlik darboza qilinub, ul darvozani gilam va bayroqlar birlan ziynat qilinub «Xush keldilar!» degan so'zni yozib qo'yilgan ekan. Kelgan mehmonlarni namanganlik mutasaddilar ko'b yaxshi qarshi olib, hozirda bitmagan vakzal yaqinida besh adad odamg'a dasturxon tayyor qilib, ziyofat qilib, ko'b ajoyib mushaklar ham tayyor kilingan ekan. Ikki nafar askariya muzikanlar nag'ma cholib turubdurlar. Ul nag'magarlarni biri Xo'qanddin poez birlan yo'llarda mashq qilib kelibdur³⁷.

Ziyofat taom vaqtida o'lturgan odamlar ko'b qulluqlar etib, ul baland darajalik Turkiston general gubernatori otliq askarlarni ginirali Samso'nuf janoblaridin muborakbod qilib yuborgan telegromni o'qubdurdilar va ul temir yo'lni binosig'a va taraddud qilgan odamlarni salomatliklarini va Turkiston viloyatini obodonchiligini tilabdurlar va yana ko'b adad muborakbod qilib yuborgan telegromlar o'qulibdur. SHul tariqa qilib, Namangan shahri ul birinchi poezni qarshi olmoqlikg'a xarajatni ayamabdurlar va soat 4 da erta birlan Namangandin ul poez Xo'qandg'a qarab borgan mehmonlarni olib jo'nab, soat 8 da Xo'qandg'a kelibdur.

1910 yili general-gubernatorlik ma'muriyati mahalliy lavozimlarga (mingboshi, qozi, yuzboshi va h.k.) saylov o'tkazishni joriy qiladi. SHu munosabat bilan Isxoqxon Ibrat saylov jarayonidagi nayranglar, soxtakorlik, poraxo'rliklarni va ayniqsa, shunday mas'uliyatli lavozimlarga nopok kimsalarning saylanganini qattiq tanqid qiladi.

³⁷ Туркистон вилоятининг газети, 1912 йил, №54, 15 июль

Hatto gazeta ma'muriyati ushbu maqolaga javob ham yozishga majbur bo'lgan

Tuzemniy gazet idorasig'a bir xabari afsus osor 1910-yilgi ahvoloti xalqiyalarimizdin. Nadomat qiladurgon ishlar voqe' bo'lib, xalqni hayratga soladur. Alalxusus, ahli ilm va ahli fatvoi shariat ishlariga aloqalik yoki muroflik odamlar go'yo tabodili olam yoki tabodili mulk bo'lgan kabi ko'rinadur. CHunonchi, har erda bo'lgan saylovlar xususidagi betartibliklar va befikrliklar millatga oshno kishilarni nihoyatda g'ussa va andishalarga soladur. CHunonchi, O'zgand qozi saylovidek Namangan aholisida ham atroflarida ko'b erlarda barpo bo'lgan saylovlarda Namangan atrofida bo'lustlar muhofazat qilib, o'z qozilari ilan tortishib, ellikboshi degan xalqlarni o'z ixtiyoriga qo'ymaganlarini hamma erda pristo'f va hokimlar bilib turub man' qilmaganlari fikrga soladurki, bo'lustlar ham qozi saylovig'a aloqalik ekanligi ma'lum bo'ludur. Xalqni fahmi shul ediki, bo'lustnoylar faqat odam hozirlab beruvmakg'a haddi bor, bo'lak xususda daxli yo'q, deb fahm qilurdilar. Emdi ma'lum bo'ldiki, bo'lak xususda ham ko'b daxli bor ekan. Ikkinchi shulki, ellikboshilar saylaganda xalq ellikboshini andisha va fikrlik durbin kishidin qilmaganlari o'z inqiroziga yuz tutganlarini ko'rsatadur. Masalan, bir odamni qozilikka sayladilar, xoh yaxshi, xoh yomon.

Milliy qozi bo'lishni polojeniyada 223-bobda zikr qilingandurki, e'tibori bor, etti kundan ziyoda hibis bo'lmagan, o'ttiz so'mdin ziyoda ishtrof to'lamagan, yoshi yigirma beshdin past emas odam bo'lur, degan ekan. Olim yo omi, ahmoq yo dono kishi yo shariat biladurgon va yo nizom biladurgon demagani shulki, faqat inson bo'lsun, mazkur ayblarga duchor bo'lmagan bo'lsun degani bul viloyatlarimizga katta yo'l bo'lib, savodi bo'lmasa ham, milliy sharorati bo'lsa ham, milliy polojeniyada ilmi kifoya qiladurgon ham deb yozilmagandur. Hibis bo'lmagan, ishtrof to'lamagan, yoshi yigirma beshdan ziyoda degan so'z katta vajh bo'lib, alholda ko'rasiz, kimlarni qo'llariga bul katta shariat hukmini topshiradurlar. 15-nomerlik gazeta bir muhaqqaq Saloh imzosi-la yozgan maqola xo'b durust, to'g'ri maqola ekanki, basharti qozilar mulladin, ulamodin bo'lsa, qodiri imtihon bo'lurlar edi. Lekin sad hayf, o'zimiz aybdor, na uchunkim millatimizni qaviy bo'lmagani,

hech fikr-andisha qiladurgan kishi yo‘q. Andisha qiladurgan odamni odam ham hisob qilmaydurlar. Bul ham o‘zimizni befikrligimizdan bo‘lur. Xo‘b, omi ham bo‘lsun, omi ham faqat o‘z royi ilan bir ish qilmoqg‘a qodir emas. SHariat mas‘alalarini mufti va olimlar ko‘rsatub fatvo beradurlar. Anda hukm qilsa kerak. SHunchalik ekanki, falon erda omidin qozi qilibdur. Rahmat yoki la‘nat deganda o‘ttuz ming ahli bo‘lsa, o‘ttuz mingdin rahmat yoki la‘nat tegadur³⁸.

Polojeniyani bobig‘a muvofiq ellikboshi degan xalq xohlaganiga muvofiq kimgaki shar ko‘b tushsa, oni yozar ekan. Na qilsunlar, bul xil qilmasalar, polojeniyaga muvofiq bo‘lmaydur. Polojeniyada shariat biladurgan mulladin degan emas ekan. O‘zimiz xohlaymizmi, nima va kim bo‘lsa oni qilurlar. Ularga kim va nima bo‘lishi ham darkor emas ekan. Binobarin, o‘z xalqimiz biri past, biri baland deb, beittifoq bo‘lurlar. Fard:

Befikr o‘lsang, ey do‘st, muhtoji non o‘lursan.

Idoradin:

Polojeniyada xalq orasida obro‘ va e‘tibori bor odam bo‘lsun degan. Albatta, mingboshilikka mingboshi bo‘lmoqlikka munosib obro‘si bo‘lub, qozilikka qozi bo‘lmoqg‘a layoqat va munosabatlik obro‘ bo‘lmoq lozimdur. Polojeniyani mulohaza qilmoq kerak.Idora.

Ushbu maqola millatni jaholatga sudrayotgan illatlar tanqidiga bag‘ishlangan. Millatni yangi ilm-fan, texnika taraqqiyotidan bahramand bo‘lishga da‘vat etadi. Maqolada ayollar ma‘rifati, buning farzand tarbiyasidagi o‘rni masalalariga, ayniqsa, alohida e‘tibor berilgan.

Ey, bizni musulmon firqalar, sizlarni bu yillardagi ahvoli a‘mollaringiz ichkari shaharlardagi madaniyat topgan xalqg‘a kulki bo‘ladurg‘on hollardurki, buni oldini hech qaysilarimiz olmaduk. Emdi olib ham bo‘lmadi. Bul qarzdorliklar mulklarimizni va obro‘larimizni to‘kmakka sabab bo‘lgan beilm, behisob, befikr va madaniyatsizliklarimiz, beparvoligimiz va erinchoqligimizdur. Xususan, hukumat bizni shaharlarimizni zabt qilgandin buyon qaysi bir sartiya

³⁸ Туркистон вилоятининг газети, 1910 йил, №22, 21 март

madrasalarda xatm qilib, zamonaga muvofiq ilmlar hosil qildi? Qancha sart bolalari o'quydur, bilurmusiz? Yo'q, yo'q! Holo ham biz qadimgi, eski andishada mozorlarga sig'inib, o'z dinimizga harakat qilmay, oqcha topsak, xohish uloq, to'ylarga o'n ming sarfi behuda, isrof degan ulamo yo'q. O'lganga besh ming sarf-isrof uchun qaysi ulamo bularga fatvo bergan, halol deb. Halol desa, bundan zarur halollar bor. Ular qolubdur. Hech kimda xalqg'a nasihat yo'q, bo'lsa ham quloqg'a olmaylar. YOshlar bo'lsa, kukli ila yuradurlar. Qarilar ahli ayolini betartibda, axloqsiz qilib o'sturgan. Uylangandin so'ng rosxud otasidin eydur. Otasi biror kun kamroq rosxud bersa, oni o'ldurmakda. «O'zidin chiqqan balog'a qayg'a borsun davog'a». Bu muhtalolik, jaholat tartibsiz bo'lub, so'kub, katta qilib, yoshlikda ko'chada yong'oq, oshuq, ondin kattaroq bo'lganda gapxonada safsata, azkiya degan behuda so'z, urushmoq, so'kushmoqni ta'lim oladur. Bu af'oli badlarni, bu maraz dardni dorusi ilmdur. YOshlarni maktabda tartib qilib o'sturmaganlikdindur. Holo ham sizlarga vaqtdur. Ilmsiz kishi asossiz devor degan. Asossiz devor g'oyatda bee'tibor bo'lur. Ilm o'qung, o'qutung, axloqi funun zamonaga darkorlik ilmlar zarur, agar siz shul zamonda turmak bo'lsangiz. Lekin, yo'q, sizni

zamonlaringiz, bu zamona, bul asr ermas, bul asrda turmaklik sizga dushvor bo'lur. Agarda yangi ilm, yangi yo'l, yangi olam, yangi asrdin bid'atni oroda qilib, so'filik qilurman desalaringiz, xotiri jam' bo'ling. Eski nimarsa qolgan? Yo'q, har asr, har qarn ahvoli o'z vaqtiga muvofiq bo'ladur. Sizlar bul asr xalqni o'z yo'llaringizga solmoq ilojini qilsangiz, mana zamon qilib bo'lmaydurki, Mashrab devonani so'ziga to'g'ridur: «Bayozidni vaqti o'tti, shayxi so'fiyon izlama» deydur. Ibratlik so'zdur. Har asr, har qarn bir atvor ilan kechar. Agar umrni xohlab yoki qaytarib olmoq mumkin bo'lsa edi, Va laysash-shaboba bi'avdi quvvatin, demas edilar³⁹.

Umrni qaytarib olur edilar. Lekin bo'lmaydur, zamona turmaydur, asr va tor vaqt ketar, ilmsiz, axloqsiz qolur. Sizlar vaqt, asr laylatulqadrdek o'tub ketar, ilmsiz, axloqsiz qolursiz, harakat darkor, ijti hod darkor. Hayotni sizga boylab

³⁹ Туркистон вилоятининг газети, 1914 йил, №18, 2 март

bergani yo‘q. Mamot hozirdur, voqif bo‘ling, amal qiling, ish qiling, yo‘l toping, ilm o‘qung. Oллоh yor etur.

Quruq yurma, quruq dasti ajalda

Solur toki kamon etmas mahalda.

1907 yili «Turkiston viloyatining gazetisi»da eski maktablar tarafdori Mulla Husanxo‘ja eshon bilan Isxoqxon Ibrat

o‘rtasida keskin munozara bo‘lib o‘tadi. Mulla Husanxo‘ja domla eski maktablarni engil-elpi isloh qilish shiori bilan chiqadi, Ibrat esa eski maktablarni tubdan o‘zgartirish, ular o‘rnida zamon talablariga javob beradigan maktablar ochish tarafdori bo‘ladi. SHu munosabat bilan Ibrat 1907 yilda Munavvar qorining taklifiga binoan Toshkentga keladi, uning maktabidagi bitirish imtihonlarida qatnashadi, olgan taassurotlarini maqolada bayon etadi.

Muallim bechora aziz farzandlarimizni kaltak, qamchi yo‘q bahonasi-la besh-o‘n sanalar (5—10 yil) osmonga qaratub, «alif, babazer, bebazer», deb shovqin qildirib-qildirib, bir harf ham o‘quv-yozuv bildirmayincha umrlarini barbod qilib yotmoqg‘a taqviyatgina bo‘ladur. Bolalarni eski maktablar ila jamoalarg‘a taqsim qilib, kelish-ketish, kaltak va qamchi mas‘alalarin isloh qilmoqda albatta lozimdur. Lekin o‘qulajak kitoblar mazkur eski kitoblar, o‘qulajak domlalarida — eski domlalari, maktablarida — eski hasharot uyalari bo‘lduqinda bu mas‘alalar ming marotabalar isloh etilsa-da, bekor, behudadur.

Agar vijdon, insof ila muhokama qilsak, tavaqqufsiz va taraddudsiz eski maktablarimizni asoslaridan yiqib, joylariga tartib va intizom bilgan yangi usul domlalarining himoyasida bo‘lgan maktablar vazh etmaki lozimdur. Eski maktabdorlarimiznida dehqonchilik hunarlariga sahiv etmak muvofiqi haqiqatdur. Bu so‘zum janobi muallimlarga — eski va yangi domlalarimizga oxirgi so‘zum. Men o‘zum ham o‘zumg‘a qarashlik o‘nta-o‘n beshta bolalarni eski maktabda hech bahra topmay, behuda yurduqlarina jonim achib, Qozon tarafinda bir muallim jalb edub, maktab qilib verdim. Maktabning kushodig‘a uch oy bo‘lgani yo‘q. Yigirmadan ziyoda kichik bolalar «alif nima?» degan savolina «kaltak» deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurg‘on bo‘ldilar. To‘rt-besh va

etti-sakkiz sanalar Qo‘qong‘a yurub, hech narsa bilmagan mullabachalar bitamomihi arabiy mukolamag‘a qodir bo‘lib, har bir kitoblarni mutolaa etadurgon bo‘ldilar. SHul sababdin biz ko‘zumiz ila tajriba qilib, bul o‘qutishga tamom ixlos qildik. Agar Rusiya ilmlarini bilmak darkor bo‘lgan holda, o‘shal maktablarda Rusiya muallimlaridin saqlab, biror dars Rusiya ilm va zabonidan ta‘lim berilgan holda ancha naf‘ olur edilar⁴⁰.

Biz Turkiston musulmonlari orasinda xilofi shariat odatlarini ko‘pligi har kimg‘a ma‘lumdir. Muning daf‘i va islohini kim etar? Bizni fikrimizcha, muning daf‘u islohig‘a ulamo hazaroti kamari himmat bog‘lab, muqaddas mehrobu minbardan va‘z so‘ylab, aholig‘a ahkomi shariatni bildurub, baytulloh hukmindagi masjid va jome‘larida erta-yu kech amri ba

ma‘ruf va nahy az munkar etib, xaloyiq anglayturgon bir til ilan pandu nasihat etsalar ham muning hech qo‘ymasdan har kun ba‘d az namozi fajr va ba‘d az xufton doim muxtalif mavzu‘lardan bahs etsalar, albatta, ta‘sirsiz qolmas. Xususan, muqaddas masjidg‘a so‘ylaganva‘z har bir mo‘‘min qalbina du bolo ta‘sir etar. Qur‘oni karim amri ma‘ruf va nahyi munkar etmoq uchun mav‘izan pandu nasihat uchun ko‘p oyatlar borligi ulamo hazarotlarig‘a ma‘lumdir. Olami islomni har tarafidagi masjidlarda xalq tili ilan va‘zu pand etmoq joriydir. YOlg‘iz Turkiston va Buxorog‘a, bilmayman, na sababdan joriy emas. Oningchun xalqni axloqu odobi islomiyasi kundan-kun buzilmoqda. Ori, bizni masjidda «saloti Mas‘udiy»ni bechora avom anglamaydur. Zotan, oti imomlarni o‘zlari o‘qimoqlari lozim. Loaqal, mazmunini avomg‘a tushundurmoq kerak. Holbuki, xaloyiqg‘a zarurroq, kerakdur. Bugun ko‘paygan buzuklik va fasodlarni islohi uchun va‘z qilmoq kerak. Zaruriyoti diniya va axloqi islomiyani alarg‘a ta‘lim va tanbeh qilmoq kerakdur. Ba‘zan namozi fajrdan so‘ngra masjidg‘a omi gadoylar g‘azal o‘qib, xurofot so‘ylab, va‘z aytgan bo‘lub sadaqa jamlar. Besavod bir gadoy og‘zig‘a kelganini imom afandi huzurinda bemuhobo so‘ylar. Hech kim anga bir nima demas. Holbuki, masjid ichinda gadoylik va sadaqa durust yo‘q edi. Imom

⁴⁰ Туркистон вилоятининг газети, 1907 йил, №72

afandilar masjidda va'z aytsalar, xaloyiqni bilmaganini bildursalar, albatta, izzatu hurmatlarida ziyoda bo'lur. Xaloyiqda isloh topilur, dunyovu oxiratda ajrlari ham ziyoda bo'lur. Zotan, ulamo hazrotiki, varasat ul anbiyodurlar, vazifalari ta'limu hidoyati xalqullohdur. Kuntum xayra ummatin uxrijat linnasi ta'muruna bilma'rufi va tanhavna anil-munkar, 'ulamaum ummatiy kaanbiyai bani Isroil oyat va hadislarining sha'ni shudur.

Sobiq «Samarqand» jaridasi va «Oyna»da ham bir necha da'fa mundan bahs bo'lub edi. Alhamdulillahki, idorag'a yaqinda xabar olindiki, Samarqandni Xojajon Xoja mahallasining imomi muhtaram domla Hoji Abdug'affor janoblari bir necha kundan beri xalq tili ilan ba'd az namoz va'zi pandu nasihatg'a boshlabdurlar. Namozguzorlar nihoyat rozi emishlar va adadlari ham ko'payibdur. Va'zlarida ta'sirini oz bir muddatda ko'rsatibdur. Alloh taolo bu imom amsolini ko'paytirsun. Domla Abdulg'affor janoblari bir necha sanalar Harami muhtarami Nabaviy hazratlarining Samarqandda bu amri lozimni boshlaganlari uchun tabrik etarmiz. Ori, ulamo qavmidindurlar. Ulamo g'ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur.

Maqolada payg'ambarlarning vorisi bo'lgan olimlarning burchlari va vazifalari xususida so'z yuritiladi. Jumladan, ularning omma tarbiyasiga mas'ul ekanliklari, ma'rifat targ'ibiga e'tibor ko'rsatishlari zarurligi ta'kidlanadi.

Namangon uezdida To'raqo'rg'on qozisi as-sayyid-ul-haj Isxoqxon to'ra aandi bir haqiqiy musulmoni komil ekanini o'z hamqaryalari bilib turub, ba'zi afkori sodiqona tarafdori o'ldug'i uchun qozi afandi xiroji vos-vos deb taajjublanub, ta'n etkuradurlar. Lekin biz o'z fikri qosironamiz birla tafakkurot edub, u janob qozini jumla harakotu aqli pisandonasini ma'qul topmoqdin boshqa yo'limiz yo'q. Albatta yo'q. CHunki Bokuda Husaynzoda janoblari bir fikri sodiqonada bir go'shaya cheqdi. Isxoqxon to'ra janoblari esa bu go'shaya chekmoqni ham boshqa fikr ila mardud edur. CHunki aqli komil inson dunyoning sonsiz mehnat va anduhlarindin va charxi kajraftor ta'nalarindin bir zarra qadar o'lsada maluliyat hosil edmaz.

Isxoqxon to'ra sayyidzoda ham hoji va olim va fozil bir zoti oliy o'lub, bu turfa fazoyili insoniyaya molik ham xattoti azimdur. Chunki musulmoncha xat yozmoqdin o'n etti nav' yozuv birla qalam yurguzurlar. Bu osori qalamiya va aqliyasinda namunai zotiy demakka shoyon bir san'ati o'tgan yil 1907 yilda janob Turkiston generol gubernatorig'a taqdim qilinub, shoyistalig'ig'a ikkinchi daraja pochotnoy xalat olgon edilar. Mazkur fazoyili insoniya dinmoad qozi to'ra janoblari arabcha, turkcha, forsha, hindcha, ruscha lison bilub, yana ruscha, fransuzcha, armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa yana mohirdurlar. Ba'zi ixtirolari ham bordur.

Bu so'zumdin murod Isxoqxon to'rani elg'a tanitmoq yoki xushomad qilmoq emas. Balki shul qadar insoniya jam' bo'lgan bir odamni mamnu'i butun viloyatda bo'lunmagani uchun insoniyatda adm ul-misol ekanini madaniyat hurmati uchun yozmoq qalamimga malol kelmadi va muncha fazoyili

insoniyasi orasindagi oshiqona va haqirona va giryaxezona she'rlarini ta'did qilmoqqa husulim bo'lmadi. Yo'qsa, bir necha gazetag'a yozsam-da, hanuz itmomig'a etkuzmoq mumkin bo'lmaz. Mana islom e'tiqodi, farang fikrli, ovrupo qiyofali, mo'min inson. Rahmat ango! Agar Isxoqxon to'raga tobe qishloq fuqarolari, ya'ni To'raqo'rg'on bo'lusti aholisi mundoq qoziyi insoniyatparvarni bilmasalar, minba'd avsoli badaxloq, nafs ovarasi, majnundin xarobroq qozig'a uchrab, falokat ostida ezilmoqlari haqiqiydur. Qozi to'raningfuqaroparvar va insof doirasinda haqshunoslik ila shirin va beozor xalqullohg'a qilgan muomalai komilonalarini yozmoqqa majbur o'ldum. Hamda yozmoq sha'niga loyiq bir ishdur.

Xulosa

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jixatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy

taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralari ko‘rdi. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o‘ynadi.

Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik xarakat bo‘lib, u o‘sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat xayotida ijtimoiy va madaniy isloxotlar o‘tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g‘oyalarini xayotga tadbqiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi.

Turkistonda jadidchilik g‘oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu xarakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy xayotida muxim rol o‘ynadi.

SHunday xalqning fidoiy farzandlari orasida Ibratni ham alohida takidlash kerak. Isxoqxon Ibrat bu mamlakatlarda Yevropa usulidagi shaharlar, ulardagi madaniy hayot vatexnika yangiliklari bilan tanishdi, zamonaviy fan yutuqlarini egallash uchun G‘arb tillarini bilish zarur ekanligini yaxshi angladi. Lekin bu madaniy hayotdan bahramand bo‘la olmayotgan, mustamlaka zulmi ostida azob chekayotgan arab, hind va boshqa SHarq xalqlari hayoti uni iztirobga soldi. Isxoqxon o‘z Vatanida ko‘rgan mustamlaka zulmining og‘ir dahshatlarini chet mamlakatlarda ham ko‘rdi, hamma mustamlaka mamlakatlarda xalq hayoti bir xilda og‘ir ekanligini tushundi. Mustabidlarga nafrat bilan qaradi.

Xalqni ongini uyg‘otish uning hayoti va ijodidagi asosiy maqsad va mazmunga aylanadi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi sifatida tariximizning ajralmas qismi bo‘lgan xonliklar davri, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va jadidchilik harakatining namoyondalari bo‘yicha hozirgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarda bildirilgan ilmiy-nazariy mulohazalar, tarixiy faktlarni o‘rganish va umumlashtirish asosida Isxoqxon Ibratning hayoti va ijodi shuningdek, yaratgan asarlarini tarixiy manba sifatidagi talqini xususidagi nazariy ma’lumotlarni jamlash hamda ularni tarixiy jarayonlar bilan solishtirib o‘rganish belgilandi.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagilar bo‘yicha tahlil qilish vazifasi belgilandi:

- Ibratning hayot va ijod yo‘lini haqoniy tarix tamoyillari asosida yaratilgan asar va manbalar orqali tadqiq etiish;

- mavjud manbalarda aks etirilgan ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o‘zgarishlarga nisbatan Isxoqxon Ibrat ijodidagi o‘zgarishlarni tarixiyligi xususida mulohaza bildirish;

- «Tarix-i Farg‘ona» asarining eng muhim belgilari, tushunchalari va ularning ilmiy talqini, maqomiga doir nazariy ma’lumotlarni jamlash va tahlil qilish;

Bitiruv malakaviy ishining asosiy materiali sifatida XVIII-XX asr o‘lkamizda ro‘y bergan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni aks etirgan Ibratning ijodida o‘z aksini topgan tarixiy va nazariy ma’lumotlar tashkil qiladi. SHuningdek, tadqiqot jarayonida jadidchilik va vatanparvarlik g‘oyasi amaliy asos sifatida foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini jamiyatimizning bugungi taraqqiyot bosqichida tariximizni idrok etishda eng muhim davrlardan bo‘lgan xonliklar va Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davrini tashkil etadi. SHuningdek, tadqiqot jarayonida bu mavzuga doir ilmiy-nazariy mulohazalarga tayanildi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – 366 б.

3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998. -31б.
4. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Ўзбекистон, 2008.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Қатағон қурбонлари хотирасини абадийлаштириш тўғрисида”. – Тошкент, 1999 йил 12 май.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Қатағон қурбонларини ёд этиш кунини белгилаш тўғрисида”. – Тошкент, 2001 йил 1 май.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори “Ватан ва халқ озодлиги йўлида қурбон бўлган фидойилар хотирасини абадийлаштириш тўғрисида”. – Тошкент, 1999 йил, 22 июль.
8. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз// асарлар, 7-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999. 132-154 б.
9. Аминова Р.Х. Коллективлаштириш-қашшоқлаштириш демак // Шарқ юлдузи. 1992 №12.
10. Анъаналар, дин ва аёлларнинг ижтимоий мақоми //Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг аҳволи тўғрисида маъруза, RBEC // Undz, 1999.
11. Араловец Н.Д. Женский труд в промышленности СССР. -М.: Профиздат.1954.
12. Ахунова М., Убайдуллаева Р.Женщины Узбекистана навстречу международному году женщины// Общественные науки в Узбекистане, 1975, №8
13. Бобожонова Д.Б. Аҳоли саломатлиги ва экологик муаммолар, Т.: Фан, 1996.
14. Бобожонова Д.Б. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар.- Т.: Шарқ, 1999.
15. Ватанамиз ўтмишидан. «Андижон нашриёт матбаа» -Андижон, 2007.
16. Вохидов Шодмон Қўқон хонлигида тарихнавислик- Тошкент: Академ нашр 2010й

17. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси. Т.: Ўзбекистон, 2003.
18. Зиёев Х. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси. – Т.: Адабиёт ва санъат. 2000.
19. Ражабов Қ. Истиқлол шаҳидлари ҳақида икки китоб. Жаҳон адабиёти. 2003. - № 2.
20. Раҳмонкулова А. Шўро тузумининг 1930-50 йиллардаги қатағонлик сиёсати ва уни усуллари. Ўзбекистон тарихи. – № 1,2. Тошкент, 2000. - Б. 96-101.
21. Т.С Саидкулов Ўрта Осиё халқлари тарихининг арихшунослигидан лавҳалар-Тошкент, “Ўқитувчи”, 1993.
22. Тарихнинг хасратли саҳифалари. –Т.: Шарқ, 2006.
23. Шамсутдинов Р. Акбарова. М. Ўрта Осиёдан қозоғистонга сургун қилинган қулоқлар, уларнинг ҳаёти ва тақдири. (1929-1956 йиллар).
24. Шамсутдинов Р.Т. Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. –Т.: Шарқ, 2001.
25. Шамсутдинов Р.Т. Қатағон қурбонлари.(1937 йил 10 август-5ноябрь). Иккинчи китоб. Масъул муҳаррир Н.Ф.Каримов. –Т.: Шарқ, 2007.
26. Шамсутдинов Р.Т. Катта террор айбдорлари ҳақида янгича талқинлар. - Андижон, 2007.
27. Шамсутдинов Р.Т. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). –Т.: Шарқ, 2003.
28. Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.:Шарқ, 2001.
29. Шамсутдинов, Мамажонов Алишер. Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар қисмати. –Т.: Шарқ, 2005.
30. Шамсутдинов. Қатағон қурбонлари.(1938 йил февраль, сентябрь). Бешинчи китоб. Т.: Шарқ, 2009.

- <http://www.philosophy.ru>.
31. [http://w.w.w Royallib.ru](http://w.w.w.Royallib.ru).
32. [http://w.w.w interpretive. ru](http://w.w.w.interpretive.ru)
33. [http://w.w.w russiasib.ru](http://w.w.w.russiasib.ru)
34. [http://w.w.w turklib.ru](http://w.w.w.turklib.ru)
35. [http://w.w.w history.com](http://w.w.w.history.com)
36. [http://w.w.w religocivilis.ru](http://w.w.w.religocivilis.ru)
37. [http://w.w.w ziyonet.uz](http://w.w.w.ziyonet.uz)
38. [http://w.w.w ziyo.uz](http://w.w.w.ziyo.uz)